

**TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**



# O'QUV USLUBIY MAJMUA



**TOSHKENT- 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“IQTISODIYOT”  
YO'NALISHI**

**Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi  
moduli bo'yicha**

**O'QUV USLUBIY  
MAJMUA**

**Mazkur o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 07 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchilar: TDIU professori, i.f.d. Xasanov R.R., Tarmoq markazi bo'lim boshlig'i Agzamov A.T.

Taqrizchi: A.M. Qodirov - TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM bo'lim boshlig'i, i.f.d., professor.

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabragi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	17
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	55
V. KEYSLAR BANKI.....	81
VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	86
VII. GLOSSARIY.....	88
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	91

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta'lif to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 797-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4022-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lif jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lif xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi” modulining **maqsadi** Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi borasidagi bilimlarni takomillashtirish, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi muammolarini aniqlash va baholash, innovatsion faoliyat rivojlantirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

“Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi” modulining **vazifalari**:

innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmunini yoritib berish;

innovatsion jarayon modellari va qonuniyatlari, ularning amal qilishi to'g'risida axborot berish;

intellektual mulk va kapitalning harakatlanishi, uning huquqiy muhofazasi, himoyasini ta'minlash va boshqarish bo'yicha munozalar yuritish;

O'zbekistonning milliy innovatsion tizimining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha tushunchalar berish;

innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining o'rnnini ko'rsatib berish;

korxona va tashkilotlarda innovatsion faoliyatni boshqarish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi to'g'risida munozarali bahslar yuritish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- innovatsion rivojlanishning mazmunini;
- rivojlanishning innovatsion tiplarini;
- innovatsiya turlarini;
- innovatsion taraqqiyotda innovatsiyalarning chiziqli modelini;
- fundamental ilmiy g'oyalarni;
- iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlantirish asoslarini;
- mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlarni;
- hududlardagi asosiy va etakchi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishini;
- “universitet-ishlab chiqarish” kontseptsiyasini;
- Buyuk Britaniyada innovatsion rivojlanish modelini;
- Germaniyada innovatsiyalarni rivojlantirish va qo'llab quvvatlash muhitini;
- innovatsion taraqqiyotning sharqiy Osiyo tajribasini;
- milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi borasida mavjud holat va yuzaga keladigan muammolarni bilishi kerak.

### **Tinglovchi:**

- kreativ fikrlash;
- transfert texnologiyasini tushunish;
- yangilikni tijoratlashtirish va moliyalashtirish;

- innovatsion faoliyat uchun kadrlar tayyorlash;
- iqtisodiyotni soflashtirish va servislashtirish;
- ilmtalab ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- mikro va makroiqtisodiy jarayonlarda ilg'or tashkiliy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- indikatorlarni hisoblash;
- mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifati aniqlovchi indikatorlarni tahlil qilish;
- yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi jarayonlarini tahlil qilish, tendentsiyalarini baholash ko'nikma va malakalarini egallashi lozim.

**Tinglovchi:**

- milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish zarurligi va xususiyatlarini hamda innovatsion rivojlanishning chet el tajribasi va milliy uyg'unligi zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali echimini topish, ularni bartaraf etish va qarorlar qabul qilish borasida kompetentsiyalarini egallashi lozim.

**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

O’quv jarayonida ta’limning interfaol o’qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo’llash nazarda tutilgan:

- ma’ruza mashg’ulotlarida “Aqliy hujum”, “Kutish yo’ldoshi”, “Kontseptual jadval”, “O’ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing” kabi interfaol o’qitish metod, shakl va vositalaridan;

- amaliy mashg’ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishslash, SWOT-tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o’qitish metod, shakl va vositalarni qo’llash nazarda tutiladi.

**Modulning o’quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o’quv rejadagi “Zamonaviy bozor tuzilmalari, xususiyatlari va tartibga solish mexanizmlari”, “Makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotni barqarorlashuvi muammolari”, “Raqamli iqtisodiyot” o’quv modullari bilan uzviy bog’langan holda tinglovchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta’limdagি o’rni**

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi muammolarini aniqlash, ularni tahlil etish, baholash va echimini topishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo’ladilar.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat</b>			
		<b>Auditoriya o'quv yuklamasi</b>			
		jami	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi mazmuni, zarurligi va xususiyatlari.	4	2	2	
2	Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilish va loyihalashtirish	4		2	2
3	Innovatsion rivojlanishning chet el tajribasi va milliy uyg'unligi.	4	2	2	
4	O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishining ustuvor yo'naliishlari.	2		2	
5	Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish	4		2	2
	Jami:	18	4	10	4

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi mazmuni, zarurligi va xususiyatlari.**

Innovatsion rivojlanishning mazmuni. Rivojlanishning innovatsion tipi. Innovatsiya turlari. Innovatsion yo'naliishing beshta bloki: kreativ, transfert texnologiyasi, yangilikni tijoratlashtirish, moliyalashtirish, innovatsion faoliyat uchun kadrlar tayyorlash. Yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish. Texnopark, texno polis, kam energiya talab etadigan texnologiyalardan foydalanish siyosati. Ishlab chiqarish faoliyatini intellektualashtirish. Iqtisodiyotni soflashtirish va servislashtirish. Ilmtalab ishlab chiqarishni rivojlantirish. Mikro va makroiqtisodiy jarayonlarda ilg'or tashkiliy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Innovatsion taraqqiyotda innovatsiyalarning chiziqli modeli. Fundamental ilmiy g'oyalar. Innovatsiyalarning ko'p sonli manbalar modeli. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot. Ilmiy salohiyat. Innovatsion jarayon modellarining amal qilish qonuniyatları. Davlatning ilmiy-texnik siyosati.

## **2-mavzu. Innovatsion rivojlanishning chet el tajribasi va milliy uyg'unligi.**

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlantirish asoslari. Xorijda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha bo'g'inlarida bosqichma-bosqich asosiy va yordamchi fondlarni zamonaviy texnoliyalar bilan almashtirish siyosati. Xududlardagi asosiy va etakchi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi va diversifikatsiyalashuvini amalga oshirish.

Mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlar. Indikatorlarni hisoblashda ta'lim, ilm-fan, texnologiyalar, inson kapitali, innovatsion va ijtimoiy-siyosiy muxit, rasmiy milliy statistika ma'lumotlari, aholi va tegishli mutaxassislardan olingan ma'lumotlarni yaxlit tizimga keltirilishi.

AQShda yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etishning "universitet-ishlab chiqarish" kontseptsiyasi. AQShda milliy innovatsion tizim uchta yo'nalishi. Buyuk Britaniyada innovatsion rivojlanish modeli. Buyuk Britaniyada intellektual mulkka egalik xuquqi. Germaniyada innovatsiyalarni rivojlantirish va ko'llab quvvatlash muhiti. Germaniyada ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat roli. Innovatsion taraqqiyotning sharqiy Osiyo tajribasi (Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Xindiston, Singapur va b.)

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot.**

#### **Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmuni, innovatsion jarayon modellari va qonuniyatları.**

Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmuni.

2. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot va uning xususiyatlari.

3. Innovatsion jarayon modellari va amal qilish qonuniyatları.

Kalit so'zlar: Innovatsion rivojlanish. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot. Innovatsion jarayon. Innovatsion model. Innovatsion moyillik. Yangilikka intilish. Innovatsion barqarorlik.

### **2-amaliy mashg'ulot.**

#### **Ilmiy – innovatsion tadqiqotlarni tashkil qilish va loyihalashtirish.**

#### **Innovatsion kadrlarni shakllantirish va boshqarish.**

Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari (ITTKI)ning mazmuni. ITTKIlarini tashkil qilish va loyihalashtirish bosqichlari.

Intellektual mulk va kapital shakllanishi.

Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning samarali tizimi yaratishning zarurligi.

Yangiliklarni ishlab chiqish, tadbiq etish va yaratishni boshqarish.

### **3-amaliy mashg'ulot.**

1. Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyoti.

2. O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishda xorij tajribalaridan foydalanish

3. O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari

Kalit so'zlar: Intellektual mulk. Intellektual kapital. Intellektual ishlanmalar. Intellektual boylikning huquqiy muhofazasi. Intellektual mulk himoyasi. Intellektual mulkni boshqarish. ITIlarni tijoratlashtirish. Ilmiy kashfiyotlar. Ixtiolar . Litsenziyalash .

#### **4-amaliy mashg'ulot.**

##### **Innovatsion taraqqiyotning xorij tajribasi.**

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlanirish asoslari.

Mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlar.

Ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat roli.

Innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash.

Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish mexanizmi.

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyat. Innovatsiyaning axborot – kommunikatsiya texnologiyalari. Innovatsion boshqaruv. Innovatsion strategiya. Innovatsion loyihalar. Innovatsion samaradorlik. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish.

#### **5-amaliy mashg'ulot.**

##### **O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi va rivojlanishi.**

1. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.

2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.

3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

Kalit so'zlar: Milliy innovatsion tizim. Innovatsiyaga asoslangan iqtisod. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

### **KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

Mazkur modulning o'quv rejasida "Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish" mavzusida 4 soat ko'chma mashg'ulot rejalashtirilgan.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlanirish).

Keng ko'lami suhbat. Hamma uchun umumiyl bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga

diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalg qilish imkonini beradi.

Press-konferentsiya. Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish. Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.**

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari  
Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinushi.  
Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi

Олиб борувчининг кириш сўзи, кўрилаётган масала билан аудиторияни  
таништириш, регламентни тасдиқлаш, иштирокчиларни таништириш



### **Bahs**

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

### **Anjuman-bahsining roli**

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki

uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o’z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so’zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo’l qo’ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo’shgan hissasi to’g’risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

### «Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo’roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo’yicha o’z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqboli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o’qib-o’rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.


To’g’ridan-to’g’ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko’proq fikrlar yig’ilishini ta’minlaydi. Butun o’quv guruhi (20 kishidan ortiq bo’lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlarga bo’lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruuh ichida umumiylar muammoning bir jihatni hal etiladi.

Ko’rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar







Тоифали жадвал Тоифа – мавжуд ҳолат ва муносабатларни акс эттирадиган белги (умумий).  
 - ажратилган белгиларга кўра олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.  
 - тизимли мушоҳада қилишни, маълумотларни таркиблаштириш ва тизимлаштириш кўникмасини ривожлантиради.

Тоифали шархни тузиш қоидалари билан танишилади. Ақлий хужумдан сўнг (кластерга ажратиш) мини гурухларда янги ўкув материали билан танишилади ва олинган маълумотлар фрагментларини бирлаштиришга имкон берадиган тоифаларни излаш ишлари олиб борилади.

Тоифалар жадвал кўринишида расмийлаштирилади. Фоя маълумотлар жадвалида тегишли тоифалар бўйича тақсимланади. Иш жараёнида маълум бир тоифалар номлари ўзgartирилиши мумкин. Янгилари пайдо бўлиши мумкин

Ишнинг натижавий тақдимоти

Venn diagrammasi



## SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko’ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog’liq bo’lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog’liq bo’ladi. Uni qo’llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

### “Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to’siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo’ladi.

So’ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o’tish vositalari strelka ko’rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o’ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo’lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo’laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

### “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagি asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

### Keys.

Amaliy vaziyat. Innovatsion tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarни belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtaida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rakash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'rlaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslaxatiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-Mavzu. Innovatsion iqtisodiyotning mazmuni, shakllanishi va amal qilish xususiyatlari.**

**Reja**

**1.Innovatsion rivojlanish va innovatsion iqtisodiyotning mohiyati va mazmuni.**

**2. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot – innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish asosi sifatida**

**3. Innovatsion iqtisodiyotning amal qilish xususiyatlari.**

Tayanch iboralar: Innovatsion iqtisodiyot. Innovatsion rivojlanish. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot. Innovatsion jarayon. Innovatsion model. Innovatsion moyillik. Yangilikka intilish. Innovatsion barqarorlik. Kreativlik.

#### **1.Innovatsion rivojlanish va innovatsion iqtisodiyotning mohiyati va mazmuni.**

Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustakamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo’lidagi muim adam bo’ldi. qarorda belgqilangan tadbirlar olimlarimizning kunlik ish sharoitini yaxshqlash bqlan bir vatda ular tomonidan bajarqilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining sifat ko’rsatgichlarini xalaro talablar darajasiga etkazqilishini ta’minlaydi. Ma’lumki, O’zbekistonda fan va ishlab chiqarish amkorligini mustakamlash, ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash, amaliy ishlanmalar va innovatsion g’oyalar uchun mustakam asos yaratqilganini ta’kidlash o’rinlidir. Prezidentimiz ranamoligida yuqori texnologik ilmiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi innovatsiya markazlari tashkil etish, ular faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy-innovatsion mahsulotlarni amaliyotga keng joriy etish borasidagi islootlar izchqillik bqlan olib borilayotgani tasqinga sazovordir.

Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining o’ziga xos xususiyatlari ta’limtizimiga o’itishning innovatsion amda qilg’or xorijiy tajribalari, yangicha yondashuvlarni joriy etishda namoyon bo’lmoda, Ta’limtizimini islo qilishga bo’lgan bunday yondashuv jamiyat ayotining turli sohalari uchun yuqori saloiyatga ega kadrlar tayyorlash, barcha jabalarni zamon talabiga mos tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

O’zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik ayta jiozlash bo’yicha ator loyialar muvaffaiyatli amalga oshirqilmoda, Bu ish samaradorligini sezqilarli ravishda oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish amda iqtisodiy yuksalishni ta’minlash imkonini beradi.

2017-2021 yqillarda ilmiy tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini mustakamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo’yicha bir ator kompleks chora-tadbirlarni o’z ichiga amrab olgan mazkur qaror innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga mustakam asos bo’lishi shak-shubasizdir.

Innovatsiyaviy nazariyani asosiy rivojlanish bosichi V. Zombart, V. Mitcherlix, Y. Shumpeter ishlariiga to'g'ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y. Shumpeter katta hissa qo'shgan.

1930-yqillarda Y. Shumpeter tomonidan innovatsiya tushunchasi kiritildi, va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, etkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirqilgan texnik, texnologik, tashkqiliy xarakterdagi qarorlarni qo'llash oqibatida mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bildirar edi. Innovatsiyaning ushbu ta'rifi va Y. Shumpeterning ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to'g'risidagi kontseptsiyasi innovatsiyalar nazariyasiga bo'lgan ikkita eng taralgan yondashuvdan birining asosini tashkqil etadi. Birinchi yondashuv - yangi omillar to'g'risidagi tushunchaga asoslangan, ikkinchisi - yangi mahsulot va texnologiyaga asoslangan.

«Innovatsiya» tushunchasini tushunishga bo'lgan ikkinchi yondashuv ishlab chiqarishda muayyan turdag'i texnika, texnologiya va bosha yangi mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga sodi ayrim olimlar ishlab chiqarish faoliyatining innovatsiyaviy va ilmiy-texnik jiatlarini teng deb bqladi. Bunda «innovatsiya» tushunchasi am jarayon, am natija sifatida tushunqiladi.

Rud Smits o'zining "XXI asrda innovatsiyalar haqidagi ta'limotlar: iste'molchqilar tomonidan savollar" nomli ishida innovatsiya tadqiqotlarida jarayonli va tizimli yondashuvchi maktablarni ajratib ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmunini o'rganishdan oldin "innovatsiya" iborasi to'g'risida tasavvur hosil qilish zarur. Ushbu tushuncha ingliz tilidan olingan bo'lib, "innovation", ya'ni yangilik, yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Mazkur tushuncha ilk bor XIX asr madaniyatshunoslari tomonidan qo'llanilgan. Turli xalqlar madaniyatlarining bir biriga ta'siri natijasi sifatida paydo bo'lgan o'zgarishlar yangilik, ya'ni innovatsiya, deb talqin qilingan. XX asr boshlaridan esa ushbu ibora iqtisodchilar leksikasiga kirib keldi. Bunda olimlar va mutaxassislar innovatsiyalarni aynan iqtisodiyotda vaqt vaqt bilan ro'y beradigan inqirozlardan chiqishning muhim vositasi sifatida o'rgana boshladilar. Ma'lumki, iqtisodiyotning inqiroz oqibatlarini engib o'tishga qodirligi uning innovatsionlik darajasini belgilab beradi.

Shu o'rinda o'rganilayotgan tushunchaning Oksford izohli lug'atida keltirilgan talqinini ham eslab o'tish maqsadga muvofiq. Unda «innovatsiya» «tovarni ishlab chiqarish yoki sotish, konstruktsiyalashga bo'lgan yangi yondashuv», deb izohlanadi. Innovatsiyalarni qo'llash natijasida novator yoki uning kompaniyasi raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi.

«Innovatsiya» atamasining zamonaviy talqini mashhur iqtisodchi olim Y. Shumpeter (J.A. Schumpeter)ga tegishli. Uning fikricha, innovatsiya – bu yangi materiallar va komponentlardan foydalanish, yangi jarayonlarni joriy etish, yangi bozorlarni ochish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga asoslangan barcha yangi kombinatsiyalarning yangidan qo'shilishi va tijoratlashuvidan iborat bo'lgan ishlab chiqarish funktsiyasining tubdan almashinuvdir.

---

1 Smits Ruud. Innovation studies in the 21st century: Questions from a user's perspective. Technological Forecasting & Social Change 69, 2002, R.861-883.

Shu o'rinda K.Shodimetovning "Muqobil energiya manbalaridan foydalanish va uning iqtisodiy istiqbollari" nomli qo'llanmasida keltirilgan ushbu fikrlar ham e'tiborli ekanligini ta'kidlash kerak.

Innovatsiya — bu moddiy ishlab chiqarish yoki sarmoya kontsentratsiyasi emas. Ayrim taddiqotchilar, jumladan, E. Toffler, F. Fukuyama, D. Bell, J. Neysbit kabi olimlar: «Aynan innovatsion texnologiyalarga tayangan davlatgina yuksak taraqqiyot darajasiga erishadi», degan fikrni ilgari surishadi. Aslida ham shunday. Zero, sanoatlashgan iqtisodiyot o'rnini asta-sekin innovatsion iqtisodiyot egallashi oddiy haqiqatdir. Natijada, yangidan-yangi bozorlar kashf etiladi. Binobarin, innovatsion maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, xususiy investitsiyalarga imtiyozlar berish, zamonaviy banklarni shakllantirish, innovatsiyalarni kafolatlash hamda sug'ortalash, kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash, yirik texnologik loyihalar uchun millii va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish talab qilinadi. Bundan tashqari, bu borada, innovatsion siyosatni tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIRO) o'z hisobotlarida yuqoridaq talablarga qatiy amal kdlayotgan 20 ga yaqin davlatda innovatsion rivojlanish tobora jadallahayotganini e'tirof etadi. Shveytsariya, AQSh, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Finlyandiya, Gonkong, Singapur, Tayvan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Daniya va Irlandiya ana shular sirasidandir<sup>2</sup>.

Rivojlanishning innovatsion tipi (ingl. Innovation model of development) – ijtimoiy ishlab chiqarishda yangi ilg'or texnologiyalarga urg'u berish, yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish, mikro va makroiqtisodiy jarayonlarda ilg'or tashkiliy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish - texnopark, texnopolis, kam energiya talab etadigan texnologiyalardan foydalanish siyosati, ishlab chiqarish faoliyatini intellektualashtirish, iqtisodiyotni softlashtirish va servislashtirish bilan tavsiflanadi.

Innovatsion iqtisodiyotda asosiy e'tibor yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, ilm talab texnologiyalar va inson faoliyatining turli sohalarini innovatsion tashkil etish, iqtisodiyotda innovatsion tizimni shakllantirish, kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlariga qaratiladi.

Rivojlanishning innovatsion tipida, asosiy ishlab chiqarish omili bo'lgan mehnatni ilm bilan o'zaro uyg'unlashuvi, texnik mahoratning intellektual mahoratga o'sib o'tishi sodir bo'ladi va bu jamiyatning iqtisodiy asosini belgilab beradi. Bunday jamiyatni tasvirlashda ilmiy adabiyotlarda "informatsion jamiyat", "ilmlar jamiyat" "informatsion iqtisodiyot", "intellektual iqtisodiyot" kabi iboralardan foydalilanildi.

Rivojlanishning innovatsion tipi bevosita ilmiy-texnikaviy salohiyatning mavjudligi va o'sishi, turli sohalarga investitsiyalarni keng ko'lamma jalb qilinishi bilan xarakterlanadi va innovatsion faol korxonalar sonining oshishiga olib keladi.

---

2 К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: "ILM ZIYO". 2014. 14 бет

Rivojlanishning innovatsion tizimida milliy innovatsion tizimni shakllanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi innovatsion iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XXasrning 70-yillarida kirib keldi.

K.Frimanning fikriga ko'ra, milliy innovatsion tizim – jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub'ektlar va ijtimoiy institatlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi<sup>3</sup>.

Texnologik izchillik qonuniyatlarini va uning tarixiy mantiqiy ketma-ketligini o'r ganadigan evolyutsion iqtisodiy nazariya "texnik iqtisodiy pradigma" va "texnologik traektoriya" tushunchalariga asoslanadi. U makrodarajadagi iqtisodiy o'sish bir tomonidan turli-tumanlikka va noaniqliklarga, ikkinchi tomondan esa mikrodarajada iqtisodiy jarayonlarni bir-biriga uyg'unlashtirish, mutanosiblikni ta'minlash, muvofiqlashtirish va standartlashtirishga bog'liqligini qayd etadi.

Innovatsion rivojlanish kontseptsiyasi Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning tashabussiga ko'ra keng rivojlanmoqda. Mazkur xalqaro institatlarning tashabbusi bilan keyingi yillarda bir qator katta tadqiqotlar amalga oshirildiki, ular milliy iqtisodiyotni an'anaviy industrial iqtisodiyotdan bilimga, ilmga asoslangan postindustrial iqtisodiyotga transformatsiya jarayonlarini o'r ganishga bag'ishlangan.

Innovatsion rivojlanishning bazaviy ko'rsatkichlari (indikatorlar) metodologik baza zaruriy elementi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarining innovatsiyalashuv darajasini ifodalaydi. Umume'tirof etilgan qoidaga ko'ra, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish darajasini bir qator ko'rsatkichlar majmuasi ifodalaydi. Ularning ichida eng asosiysi sifatida ilmtalab ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiyotga intellektual resurslarni jalb etish darajasini ko'rsatish mumkin.

Milliy va xalqaro statistik tajribada fundamental va amaliy tadqiqotlar sohasida resurslarning rivojlanishi, ilmiy, muhandislik, tadqiqotchi va menedjer kadrlarni tayyorlash tizimining rivojlanish darjasini, tadbirkorlik sub'ektlarini axborot va texnologik jihatdan ta'minlanishi, sohaning investitsiya sig'imi, ommaviy innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ko'lami, moliyalashtirish tizimining rivojlanganligi kabi ko'rsatkichlardan foydalaniadi.

2002 yildan boshlab faoliyat yuritayotgan Evropa innovatsion tablosida Evropa davlatlaridan tashqari yana jahonning 40dan ortiq mamlakati ishtiroy etadi. Unda milliy innovatsion tizim va innovatsion siyosat to'g'risidagi axborotlar juda keng qamrovli ko'rsatkichlar asosida taqdim etiladi.

AQShning oxirgi 50-yillik tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoda ruyxatga olingan texnologik yangiliklarning 60 foizi ushbu mamlakatda yaratilgan. G'arb mamlakatlarining tajribasida esa ma'lum bir davr davomida yaratilgan texnologik yangilikning soni emasi, balki uni mamlakat iqtisodiyotida qanchalik o'zlashtirilganligi innovatsion rivojlanishning bosh mezoni sanaladi.

---

<sup>3</sup>Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. L.: PrinterPublishers, 1987. 570 p.

Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi V. Makarov, innovatsion rivojlanish tushunchasini bilimga asoslangan iqtisodiyot tushunchasi bilan o'xhash ekanligini ta'kidlab, bilimni texnologik moddiyatga aylanishi holatini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, bilimlarni ishlab chiqarish esa iqtisodiy o'sishning asosiy manbasi ekanligini qayd etadi.<sup>4</sup>

## **2. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot – innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish asosi sifatida**

XX asr oxirlariga kelib jahon iqtisodiyotining rivojlanishi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlandi. Xozirgi kunda mamlakatlarning halqaro maydondagi va dunyo iqtisodiyotidagi o'rni va raqobatbardoshligi uning tabiiy boyliklari, moliyaviy mablag'larining hajmi yoki qurolli kuchlarinng qudrati bilangina emas, balki, undagi intellektual salohiyat, yangi bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati va qobiliyati bilan belgilanmoqda. Bugungi kunda bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy omili, xalq faravonligi va mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim dastakka aylandi. Buni yalpi mahsuloti o'sishining 90 foizini ilmiy-texnik taraqqiyot belgilab berayotgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi tasdiqlaydi.<sup>5</sup>

Agrar yoki industrial iqtisodiyotda tovarlarning ayrboshlanishi natijasida ushbu tovarlarning mamlakatdan butunlay chiqib ketishi ro'y bergan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichining asosiy tovari bo'lган bilim va uning natijalarining sotilishiga bunday xususiyat xos emas. Tabiiy boyliklar cheklangan bo'lsa, bilimlarning asosi bo'lган inson qobiliyatları cheksizdir. Shu o'rinda Tomas Djeffersonning quyidagi so'zlarini eslash o'rindir: "Meni nochorlashtirmay fikrlarimni olib foydalangan inson, xuddi meni qorong'ulikka duchor etmay chirog'imning yorug'lidan foydalangan inson kabidir"<sup>6</sup>. Ya'ni, bilim va uning natijalarining ayrboshlanishi uning kamayishiga emas, balki undan ham ziyoda bo'lishiga olib keladi<sup>7</sup>.

XX asr oxirlarida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlar YalMning 50%dan ortig'i bilimlarga asoslangan tarmoqlarda yaratilgan. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga o'rtacha xarajatlar YalMning 2,5%iga, ta'lim xarajatlari davlat xarajatlarining 12%iga, "o'qish va ishslash" dual tizimi mavjud bo'lган Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda "ish joyida ta'lim olish" (on the job training) ga xarajatlar YalMning 2,5%gacha etgan. 1980 – yillarning o'rtalaridan boshlab kompyuter va dasturiy ta'minotlarning sotib olinishi yiliga 12% ga oshib borish sur'atida ro'y berdi. OECD ga a'zo mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarga talab oshmoqda. O'rta ma'lumotlilar orasida ishsizlik 10,5%ni tashkil etgan bo'lsa,

---

4 Макаров, В. Контуры экономики знаний / В. Макаров // Экономист. 2003. № 3.14.

5 Глазьев С.Ю. Как построить новую экономику. // Эксперт. 21 февраля 2012.

[http://www.glazev.ru/econom\\_polit/294](http://www.glazev.ru/econom_polit/294)

6 Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Наука и жизнь, 2003. №5.

7 Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монография/ Под.ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.207

oliy ma'lumotlilar orasida 3,8%ni tashkil etgan. Yuqori texnologiyalar, ilm talab etuvchi tarmoqlarda bandlik oshib bormoqda8.

Bilimlar iqtisodiyoti ta'lim tizimi, fanlar, patent sistemasini, kompyuter programmalarini ishlab chikarish soxasi, NIOKR (Nauchno-issledovatelskie opitno - konstruktorskie razrabotki) va bilim ishlab chiqarish bilan bog'lik boshqa tarmoklarni qamrab oladi.

Bu shunday iqtisodiyotki, unda intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimlari, tovar yaratishdan tortib uni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etib borgungacha bo'lgan barcha bosqichlaridagi innovatsiyalar korxona strategik rivojlanishining asosiy resursi bo'lib xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotida keng tarqalgan "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" yoki intellektual iqtisodiyot tushunchasi shu narsani anglatadiki, ilmiy bilimlar hamda ishchi va xizmatchilarning maxsus ko'nikma va bilimlari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning, barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai va xal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

"Bilimlar iqtisodiyoti" atamasi ilk bor, milliy iqtisodiyotning bilimlar yaratiladigan, qayta ishlanadigan va tarqatiladigan tarmog'i sifatida 1962 yilda F. Maxlup tomonidan "AQShda bilimlarning ishlab chiqarilishi va tarqatilishi" kitobida muomalaga kiritilgan9. P.Druker tomonidan esa ushbu atama iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida bilimlar yuzaga chiqadigan iqtisodiyot turi sifatida keng ommaga yoyilgan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) ta'rifiga ko'ra "bilimlar iqtisodiyoti" bu bilim va axborotlarning ishlab chiqarilishi, tarqatilishi va foydalanilishiga asoslangan iqtisodiyotdir10. Boshqa bir manbada keltirilgan ta'rifga ko'ra esa "bilimlar iqtisodiyoti" postindustrial va innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining yuqori bosqichi bo'lib, bilimlar jamiyatni yoki informatsion jamiyatning asosidir11. Inson kapitali va bilim iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridir. Iqtisodiyotning ushbu turining rivojlanish jarayoni inson kapitalining sifatini oshirish, turmush sifatini oshirish, yuqori texnologik bilimlar, innovatsiya va yuqori sifatli xizmatlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Rus akademigi Ya.B. Danilevichning fikricha "bilimlar iqtisodiyoti" da "innovatsion iqtisodiyot" dan farqli ravishda, innovatsiyalar emas, balki, bilim asosiy ayirboshlash ob'ektiga, ya'ni tovarga aylanadi12. Yana bir ta'rifga ko'ra "bilimlar iqtisodiyoti" bu o'zining o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun bilimlarni yaratadigan, tarqatadigan va ulardan foydalanadigan iqtisodiyot bo'lib, unda bilimlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini va

---

8 The Knowledge Based Economy. Organization For Economic Cooperation and Development, Paris. 1996. – P. 9-10.

9 Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монография / Под .ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.207

10 The Knowledge Based Economy. Organization for Economic Cooperation and Development, Paris. 1996. – P. 7

11 <http://ru.wikipedia.org/>

12 Данилевич Я. Б., Коваленко С.А. Имидж ученого: современные PR-технологии в экономике знаний // Вестник Российской академии наук. – 2005, № 1. – С. 32.

iqtisodiy munosabatlarning barcha qatnashchilarini boyitadi<sup>13</sup>. Bugungi kunda “bilimlar iqtisodiyoti”ni atamasi juda ommalashib bormoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bu sohada ko’pgina izlanishlar olib borilayotganligiga qaramasdan “bilimlar iqtisodiyoti” tushunchasining mohiyati, uning o’ziga xos xususiyatlari, asosiy elementlari va boshqa jihatlari aniqlik talab etadi<sup>14</sup>. Tadqiqotchi Sh.Akramova “bilimlar iqtisodiyoti”ga “kuchli ijtimoiy xususiyatga ega bo’lgan va asosiy rivojlanishi bilimlarning yaratilishi, tarqatilishi va foydalanilishi ta’sirida amalga oshadigan iqtisodiyot sifatida qarash mumkin”<sup>15</sup>, degan fikrni bildiradi.

### **3. Innovatsion iqtisodiyotning amal qilish xususiyatlari**

Bugungi kunga kelib innovatsiyalar iqtisodiy taraqiyotning eng muhim, iqtisodiyotni intellektuallashtirishga asoslanuvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bunday sharoitda innovatsion, aynan bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini o’zida mujassam etgan yuqori fan sig’imiga ega bo’lgan texnologik iqtisodiyot raqobatbardosh bo’ladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bugungi kunda innovatsion taraqqiyotda innovatsiyalarning chiziqli modeli etakchi rol o’ynamoqda. Ushbu modelga muvofiq ishlab chiqilgan fundamental ilmiy g’oyalar amaliy tadqiqotlarda o’z aksini topadi. Mana shunday tadqiqotlar innovatsiyalar uchun asos bo’lib xizmat qiladi, ularni amalga oshirish natijasida ilg’or texnologiyalar yuzaga keladi<sup>16</sup>. Mutaxassislar model XX asrda o’zini faqat ijobiy tomondan ko’rsatganligi va, o’z navbatida, XXI asrda ham rivojlangan mamlakatlarda o’z o’rnini yo’qotmasligi to’g’risidagi fikrlarni aytib o’tadilar.

Adabiyotlarda mazkur modelga qo’shimcha tarzda “innovatsiyalarning ko’p sonli manbalari modeli” ham joriy etilayotganligi va unga muvofiq innovatsiyalar innovatsion tizimning istalgan qismida yuzaga kelishi mumkinligi to’g’risidagi fikrlarni uchratish mumkin. Olimlarning ta’kidlashlaricha, garchi ilmiy tadqiqotlar innovatsiyalarning muhim harakatlantiruvchi kuchi bo’lib qolsada, uning yagona rivojlantiruvchi omili hisoblanmaydi. Demak, ilmiy tadqiqotlar bilan shug’ullanuvchi tashkilotlarning an’anaviy tutgan o’rni ham o’zgarishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, yangi ilmlar nafaqat davlat ilmiy tadqiqot institutlari yoki kompaniyalarning ilmiy bo’linmalarida, balki ko’plab ijtimoiy tuzilmalarda ham yaratilmoqda. Ma’lumki, innovatsion jarayon texnologiyalar sohasi bilan chegaralaniб qolmaydi, balki institutsional, tashkiliy va boshqaruв innovatsiyalarini ham o’z ichiga oladi.

---

13 Стюарт, Т. Кузьмин, Е. И. ЮНЕСКО и общества знаний для всех / Е. И. Кузьмин, В.Р.Фирсов // Российский комитет программы ЮНЕСКО - <http://www.ifapcom.ru/>

14 Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монография/ Под.ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.209

15 Ўша жойда, 209

16 Ўзбекистон: жаҳон молиявий-иктисодий инқизози, инновацион тараққиёт ва миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш. Т.: KONSAUDITINFORM – NASHR. 2011

Bugungi kunda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar innovatsion rivojlanishi modellarining uch turi farqlanadi<sup>17</sup>:

Fanda peshqadamlikka, ilmiy ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladigan, qoida tariqasida, ilmiy-innovatsion imkoniyatlarning mudofaa sektoridagi ulushi ancha katta bo'lgan keng ko'lamli maqsadli loyihalarni amalga oshirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (AKSh, Angliya, Frantsiya);

Innovatsiyalarni tarqatish, qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot strukturasini oqilonalashtirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shveytsariya);

Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga ta'sirchanlikni ta'minlash, fan va texnologiyalar sohasida turli sektorlarning harakatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya).

Milliy iqtisodiyotlarni ilmiy-innovatsion rivojlantirish modelining to'rtinchi turi shakllanayotganini ham ko'rsatish mumkin. Bular innovatsiya omilidan foydalangan holda rivojlangan industrial muhitni yaratishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlardir. Mamlakatlarning ushbu guruhida jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o'zlashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhiddagi yangiliklarga ta'sirchanlikni kuchaytirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish amalga oshirilmoqda (Xitoy, Hindiston).

### **Nazorat uchun savollar**

Innovatsiya deganda nima tushuniladi?

Innovatsion rivojlanishning mazmun va mohiyati nimadan iborat?

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot boshqa iqtisodiyotlardan nimasi bilan farq qiladi?

Innovatsion jarayonning qanlay modellarini bilasiz?

### **2-mavzu: Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilish va loyihalashtirish.**

#### **Reja**

- 1. Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilishning ahamiyati.**
- 2. Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning samarali tizimi yaratishning zarurligi.**
- 3. Yangiliklarni ishlab chiqish, tadbiq etish va yaratishni boshqarish.**

Tayanch iboralar: Ilmiy tadqiqot. Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari (ITTKI). Fan-texnika taraqqiyoti. Ilmtalab sohalar. Fan-texnika yutuqlari. Yangiliklarni ishlab chiqishga tadbiq etish.

17 К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: “ILM ZIYO”. 2014. 30 бет

## **1. Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilishning ahamiyati.**

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun iqtisodiyotni rivojlantirish uchun fanning turli sohalarini qamrab olgan ilmtalab ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik vazifa sifatida qo'yilmoqda.

Ushbu mamlakatlarda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri ilmiy tadkikot tajriba konstruktorlik ishlariiga (ITTKI) yalpi ichki mahsulotning 3 foizgacha bo'lgan mablag'ning doimiy ajratilishidir. Ushbu tadbir natijasida fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishiga erishishga, mamlakatda g'oyat ko'plab ixtiolar, yangiliklar, g'oyalar vujudga kelishiga tegishli sharoit yaratiladi. Innovatsion taraqqiyotni ta'minlashga kuchli ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil bu inson kapitali va davlatda shakllangan texnik-texnologik uklad hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanishini aks ettiruvchi mezonlarning asosiyлари саноатнинг ривожланганлик дараси, ўқори технологиялар асосида ишлаб чиқарилган махсулот хажми, YaIMda ITTKIга qilingan xarajatlar salmog'i, YaIM таркебида innovatsion mahsulotlar ulushi, mamlakatda qilingan va ro'yxatga олинган ixtiolar, kashfiyotlar, patentlar soni va ularning tijoratlashuv darjasи hisobланади.

Ma'lumki, innovatsion rivojlanishning асосини саноат tarmog'i va uning turli yo'naliшлари ташкил etadi. Shu naqtai nazardan O'zbekistonning innovatsion rivojlanishining hozirgi holati, istiqboli haqida so'z yuritishni саноат tarmog'inинг tahlilidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston саноати rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi va yalpi ichki mahsulotda саноат mahsulotining ulushi –55 foizni ташкил etadi (2010 yil yakuniga ko'ra).<sup>18</sup> Mamlakatimizda саноатning mashinasozlik, engil саноат, paxta tozalash va qayta ishslash, gaz, rangli metallurgiya, elektrotexnika, radioelektronika va priborsozlik sohalari rivojlangan. Keyingi yillarda саноатning nefti-gaz, nefti-kimyo, energetika, metallurgiya va avtomobilsozlik sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Саноат tarmog'inинг 100 ortiq yo'naliшларida 2200 dan ortiq kontsern, ишлаб чиқарish birlashmalar, korxonalar tomonidan engil va yuk avtomobili, traktorlar, samolyotlar, paxta terish mashinalari, kabel, tekstil stanoklari, lift, kran, turli transformatorlar, kompressor stantsiyalari, mineral o'g'itlar va x.k. kabi ko'plab mahsulotlar ишлаб чиқарilmoqda. Ma'lumki 1991 yilgacha respublikamizga -6,0 mln. tonnagacha neft mahsulotlari keltirilar edi. Mustaqillik yillarda mamlakatimizning neft-gaz tarmog'iga shu sohadagi dunyoning etakchi "Kellog" (AQSh), "Nisho Ivan" (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlikda Ko'kdumaloq neft kondensat koni rekonstruktsiya qilindi. 1997 yillar Buxoro nefti qayta ishslash zavodi "Tennip"(Frantsiya), "Marubeni"(Yaponiya) kompaniyalari yordamida

---

18 Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган маъруза. Асосий вазифамиз-ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.//Тошкент оқшоми, 2010, 23 апрель.

modernizatsiya qilindi va ishga tushirildi. O’rta Osiyoda eng yirik polietilen va etilen “Shurtan gaz-kimyo kompleksi”, “AAB Lamus Global”(AQSh), “Mitsun”, “Nisho Ivan”(Yaponiya) xalqaro konsortsiumi tomonidan qurilib, ishga tushirildi. Sanoatning neft-gaz tarmog’iga kiritilgan chet el investitsiyasi ishtirokida shu sohada dunyoda yaratilgan eng zamonaviy so’nggi texnika va texnologiyalar joriy etildi. Mazkur sohaga innovatsion yondashuv tarixan qisqa davr ichida O’zbekistonning yoqilg’i-energetika mustaqilligini ta’minlashga moddiy asos yaratdi. Mustaqillik yillarda engil sanoatda 100dan ortiq chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalar tashkil etildi. “Kateks”, “Elteks” qo’shma korxonasi, (Qoraqalpog’iston Respublikasi), “Kabul LTD” korxonalari faoliyat ko’rsatmoqda.

O’zbekiston engil sanoatida Germaniya, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya, AQSh, Hindistonlik investorlar tomonidan dunyo engil sanoatining etakchi kompaniyalari, ya’ni “Tsenzer”, “Shlafxorst” (Germaniya), “Riter”(Shveytsariya), “Tayoda”, “Murata” (Yaponiya), “Savio”, “Orizio” (Italiya) tomonidan tarmoqqa yuqori texnologiyali, zamonaviy ishlab chiqarish liniyalari kiritildi va bugungi kunda muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. O’zbekistonda engil va to’qimachilik sanoatini rivojlantirishning 2010-2015 yillarga mo’ljallangan Dasturi doirasida tarmoqda -1,3 mlrd. AQSh dollari hajmida chet el investitsiyasini kiritish, qiymati -1,6 mlrd. dollarini tashkil etadigan 100 dan ortiq loyihani amalga oshirish, eksportni esa 2,0 mlrd. AQSh dollariga etkazish ko’zda tutilgan.

Elektrotexnika tarmog’ida ham “Algoritm”, OAJ “Foton”, OAJ “Zenit”, OAJ “Sino” OAJ.ni modernizatsiya qilishga, ular tomonidan maishiy elektr texnikalari, jihozlarini ishlab chiqarishga -83,5 mln. AQSh dollari (2011-2015 yillarda) miqdorida investitsiya kiritish rejalashtirilmoqda.<sup>19</sup>

Aytish joizki, sanoatda oxirgi yillarda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda ayrim, jiddiy muammolar ham saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni quyidagi tahlillar yordamida ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Milliy iqtisodiyotda asosiy fondlarning holati va ularning yangilanish jarayoni fond sig’imi va fond qaytimida o’z ifodasini topadi va bu ko’rsatkichlar ham innovatsion rivojlanish mezonlaridan muhim sanaladi.

## **2. Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning samarali tizimi yaratishning zarurligi.**

Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning samarali tizimi yaratilmagan davlatlarda iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanganligi, ya’ni asosan xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashishi, o’sish sur’atlari esa asosan ekstensiv omillar, ya’ni qo’shimcha xarajatlar evaziga ta’milanishi ko’zga tashlanadi.

Bunday iqtisodiy makonlarda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning yo’qligi yoki iqtisodiy jihatdan qoloq rivojlanganligi, oqilona iqtisodiy siyosatning yuritilmasligi, raqobat mexanizmining nomukammalligi va pirovardida bozor

19 Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидағи (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари хамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлар. “ЎЗБЕКИСТОН”НМИУ, 2011-236.

munosabatlarining rivojlanmaganligi, aholisi turmush darajasining pasayishida namoyon bo'ladi. Pirovardida aholi qashshoqligi, ishsizlikning yuqori darjasи, iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar, yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasidagi keskin buzilishlar iqtisodiyotning doimiy hamrohi hisoblanadi. Bunday iqtisodiy hududlarni, milliy xo'jaliklarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqarishning yagona yo'li iqtisodiy o'sishni innovatsion usullar bilan ta'minlashdir.

Albatta, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish bir zumda amalga oshiriladigan jarayon emas. Buning uchun tegishli shart-sharoitlar, innovatsion tizimning keng qamrovli asoslari yaratilishi lozim. Eng asosiysi samarali investitsiya siyosatining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Ma'lumki, innovatsion iqtisodiyotning tavsifiy belgilari, namoyon bo'lish shakllari quyidagilar hisoblanadi:

Qonun ustuvorligida fuqarolar va biznes tizimi xavfsizligining yuksak darajada ta'minlanganligi.

Inson kapitalining yuksak sifati, darjasи va unga yo'naltirilgan investitsiyalar sarfining yuqoriligi.

Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va sog'lom turmush tarzi.

Jamiyatda faol bo'lган malakali mutaxassis kadrlar toifasining shakllanganligi, inson salohiyati va iqtisodiy erkinlik indeksining yuksakligi.

Fundamental va amaliy tadqiqot fanlarining yuqori darajada rivojlanganligi.

Mamlakatda texnologik rivojlanishni ta'minlaydigan kuchli, intelektual-ilmiy markazlar – texnoparklarning tashkil etilganligi;

Davlat tomonidan vechur biznesi, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi samarali tizimning mavjudligi.

Mamlakatda jozibali investitsiya, tadbirkorlik muhitining yaratilganligi barqarorligi va yuqori investitsion reytingga egaligi.

Milliy iqtisodiyot, shu jumladan yuqori darajada diversifikatsiya qilingan etakchi tarmoqlar elektronika, elektrotexnika, biokimyo, neft-gaz kabi sanoat tarmoqlarining yuksak rivojlanganlik darjasи.

Mamlakatni rivojlantirish, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishni samarali mexanizmining shakllantirilganligi, dunyo texnologiya bozorida milliy raqobatbardosh mahsulotning mavjudligi.

Mamlakat hududida davlatning texnologik va ilmiy rivojlanishini ta'minlovchi transmilliy korporatsiyalar(TMK)ning mavjudligi.

Inflyatsiyaning me'yoriy ko'rsatkichlardan past (odatda 3 foizdan kam) darajada bo'lган indikatorlar har bir davlatning qay darajada innovatsion rivojlanganligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan omillar, shart-sharoitlar mavjudligi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirish va ishlab chiqarilgan mahsulotni raqobatbardoshlik darajasiga etkazishga xizmat qiladigan me'yoriy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotini tahlil qiladigan bo'lsak ularning asosiy qismi mavjud. Lekin, shu bilan bir qatorda mamlakatimiz sanoatining etakchi tarmoqlarini rivojlantirish darjasи, xalqaro bozorda

milliy raqobatbardosh tayyor mahsulotlarning yo'qligi, innovatsiyalarni vujudga keltirishga ijobiyligi ta'sir qiladigan samarali tizimning ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar ham mavjud.

Bizning fikrimizcha, islohotlarning hozirgi bosqichida milliy iqtisodiyotning eng dolzarb, o'z echimini kutayotgan muammolari –bu iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarishning bir tomonlama, ya'ni ko'proq xom ashvo ishlab chiqarishga ixtisoslashib qolganligi, eksport tarkibida yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning kamligi hamda innovatsion faoliyotning g'oyat sustligidir.

Milliy iqtisodiyot samaradorligini ko'rsatadigan muhim ko'rsatkichlardan biri moliyaviy natija hisoblanadi, ya'ni YaIM tarkibida foydaning salmog'i xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qay darajada unumli faoliyat ko'rsatayotganini aks ettiradi (1-jadval).

### **1-jadval**

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish va moliyaviy natija to'g'risida ma'lumotlar<sup>20</sup>

Yillar	YaIM		YaIMda foyda salmog'i		
	Joriy narxlarda (mlrd.so'm)	O'tgan nisbatan sur'ati (% da)	yilga o'sish	mlrd. so'mda	% da
2000	3194,5	104,0		307,6	9,62
2005	15210,4 (15923,4)	107,0		1368,8	8,99
2006	20759,3 (21124,9)	107,3(107,5)		1785,7	8,60
2007	28186,2 (28190,0,8)	109,5		3218,3	11,41
2008	36839,4 (38969,8)	109,0		3885,7	10,54
2009	48097,0 (49375,6)	108,1		5236,6	10,88
2010	61831,2 (62388,3)	108,5		5468,3	8,84
2011	78764,2	108,3		5671,2	8,13
2012	97929,3	108,2		6045,3	9,08
2013	120861,5	108,0		6311,1	8,12
2014	144867,9	108,1		6643,4	8,02
2015	152347,5	108,0		6892,5	8,11

Ushbu ma'lumotlar avvalo milliy iqtisodiyotga jalb qilingan, kiritilgan investitsiyalarning ya'ni yil boshida avanslashtirilgan kapitalning yil yakuniga ko'ra

20 Давлат statistika қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

qaytimi, iqtisodiy samarasini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, YaIMda foydaning salmog'i 9,62 foizdan (2000 yil) 8,84 foizga, ya'ni 0,78 foizga, 2007 yilga nisbatan 2016 yilda esa 1,57 foizga o'zgarganligini kuzatish mumkin. Mazkur natijalarning bir yil davomida erishilganini nazarda tutsak yoki ushbu natijalarni oylar kesimida qaraydigan bo'lsak YaIMda foyda salmog'i g'oyat kamligini ko'rish mumkin va bu holatni talab darajasida deb baholash qiyin. Chunki, mazkur natijalar hali yillik inflyatsiyasiz keltirilgan. Agar inflyatsiyani moliyaviy natijalardan chegirib tashlaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich yanada pasayishi kutiladi.

Yuqorida ta'kidlaganidek mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga erishish bilan bir qatorda yalpi ichki mahsulot tarkibida xom ashyo ishlab chiqarish salmog'ining yuqoriligi ko'zga tashlanadi.

### **3. Yangiliklarni ishlab chiqish, tadbiq etish va yaratishni boshqarish.**

Mamlakatning YaIM tarkibining bir tomonlama shakllanganligi to'liqroq tavsiflaydigan muhim indikatorlardan biri bu davlatning tashqi savdo aylanmasi hisoblanib, bu bir tomondan YaIM tarkibini va eksportga chiqarilayotgan mahsulotlarning tarkibiy tuzilishi haqida to'liqroq tasavvur beradi.

Ma'lumki yangilik va ixtiolar hamisha jamiyatning rivojlangan darajasidan oldinda yuradi, lekin muhim yangiliklar, yirik texnologik ixtirolarning kashf etilgan vaqtin ularni jamiyat tomonidan qabul qilish, ulardan samarali foydalanish holatiga mos kelmaydi. Jamiyatning innovatsion madaniyatini oshirish davlat xizmatchilari, ijro hokimiyatining turli darajadagi mutaxassislari, kadrlari va xodimlaridan o'z faoliyatida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi:

ijro xokimiyatining vazirlik, idora va tashkilotlaridagi xodimlardan davlatning hududiy ilmiy-texnologik siyosatini realizatsiya qilishda innovatsion menejment, innovatsion iqtisodiyot asoslari haqidagi bilim va tasavvurlarini boyitish;

davlat boshqaruvi amaliyotiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va qog'ozsiz elektron hujjat aylanishiga erishish;

ilmiy-texnik axborotlar aholining keng qatlamlariga etkazish ularni tarqatish va tahlil qilish tizimini tubdan takomillashtirish;

boshqaruv sohasidagi har bir xodim, diplomli mutaxassisning uzlusiz o'z malakasini oshirishga, o'z ustida tinimsiz ishlashiga majbur qiladigan moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish;

boshqaruv tizimida ishlayotgan xodimlarning faoliyatiga pirovard natjalarga ko'ra baholash tizimini yaratish, ular o'z sohasi mutaxassisligidagi innovatsion texnologiyalardan xabardorligini aniqlaydigan test olish mexanizmini joriy etish zarur bo'ladi;

xalqaro va regionlararo ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Investitsiyalarni innovatsion loyihalarni amalga tadbiq qilish uchun jalgan etish uchun hududlararo va xalqaro darajada ilmiy-texnikaviy aloqalar va o'zaro manfaatlil hamkorlik talab etiladi. Hududlarda samarali innovatsion siyosatni amalga oshirish uchun innovatsion faoliyatning maxsus tarmoq bo'linmalari, ya'ni texnologik parklar, texnologik, kurortologik polislari, biznes-inkubatorlar, ilmiy-intelektual markazlar tashkil etilishi dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsion infratuzilmaning yana bir

muhim bo'g'ini zamonaviy texnikalar, jihozlar, asbob-uskunalarni prokatga beradigan markazlar ochilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Yurtimizda tarmoq yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliv o'quv yurtlari, tajriba-konstrukturlik byurolari faoliyati bilan tarmoq faoliyati o'rtasida uzilish mavjud. Ko'p hollarda ilmiy-innovatsion faoliyat sub'ektlari tarmoq ichidagi kam ahamiyatli vazifalarni hal etishga ixtisoslashib qolib, innovatsion yo'nalishdagi faoliyatları zaif holatda bo'lib bu muammo o'z echimini kutmoqda.

Milliy iqtisodiyotda innovatsiyalarga talabni rivojlantirish uchun avvalo ichki talabni rag'batlantirish zarur bo'ladi. Ichki talabni oshirish, rag'batlantirish uchun tadbirkorlar, mahalliy tovarlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchilarga qulay iqtisodiy sharoit yaratish, ularni turli imtiyozlar orqali qo'llab-quvvatlash ichki talabni rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Ichki talabning kengayishi o'z navbatida ichki taklifning oshishiga, ishlab chiqarishning rivojlanishiga, yalpi talab va yalpi taklif muvozanatini ta'minlashga, pirovardida yalpi ichki mahsulotning ko'payishiga olib keladi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida milliy xo'jaliklarda ichki talabni rag'batlantirish orqali bir tomonidan, ishlab chiqarishning pasayishini oldi olinsa, boshqa tomonidan esa inqirozning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayonda ishlab chiqarish sektoridagi faollik, raqobat kurashi o'z navbatida ishlab chiqarishning innovatsion yo'nalishida ham ijobjiy o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari innovatsion talab va innovatsion taklif o'rtasida samarali muvozanatning ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi. Bizningcha, mazkur vazifani hal etish uchun davlatning samarali makroiqtisodiy siyosati yuritilishi va ayniqsa ta'sirchan, mukammal mexanizmini yaratishni zarur deb, hisoblaymiz:

korxona va tashkilotlarning nominal soliq stavkasini pasaytirmasdan foyda solig'inining soliq bazasini kamaytirish zarur. Chet elliq va milliy investorlar uchun investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi, tabaqlashgan «soliq imtiyozlari tizimi»ni ishlab chiqish lozim;

innovatsion faoliyat sub'ektlarini rag'batlantirishning boj-ta'rif, moliya, kredit tizimi bo'yicha «kompleks imtiyozlar» paketini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur, ya'ni imtiyozli kreditlash, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda konvertatsiya, boj-ta'rif stavkalari bo'yicha ham engiliklar berish;

innovatsion g'oyalalar va mahsulotlar ishlab chiqaradigan yuqori texnologiyali tarmoqlarga diffirentsial soliq, moliya-kredit siyosatini qo'llash;

milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatdorligini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga rag'batlantiradigan iqtisodiy siyosat yuritish;

hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun investitsiyalarni, xususan to'g'ridan-to'g'ri kiritilayotgan chet el investitsiyalarini oqilona taqsimotiga erishish va ularning asosiy qismini iqtisodiyotning real sektoriga kiritishga muvaffaq bo'lish.

O'zbekistonda innovatsiya jarayonlarini rag'batlantirishning samarali amal qiladigan mexanizmini ishlab chiqish zarur. Unda ilmiy, innovatsion faoliyat uchun imtiyozlarni belgilash va ularni qo'llash tartibi ko'rsatilishi lozim. Imtiyozlar tizimini qo'llash tsikli fan-texnika taraqqiyotining fundamental, amaliy tadqiqotlaridan tortib to ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan rag'batlantirish bosqichlarini qamrab olishi kerak. Bugungi kunda industrial rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatga kiritiladigan xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishning quyidagi ko'rinishlarni keltirish mumkin:

soliqqa tortishdagi imtiyozlari;-

imtiyozli kredit berish tizimi;

davlat maqomiga ega ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa innovatsiya sub'ektlarini litsenziyalash ularga patent berishni soddallashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Imtiyozlar tizimini qo'llash innovatsion siyosatning ustivor maqsadlari, vazifalarini aniqlash investitsion-innovatsion faoliyatni jadallashtirishda muhim o'rinn tutadi. Fikrimizcha, samarali makroiqtisodiy siyosat orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirish innovatsiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni tezlashtirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash kabi vazifalarni hal etishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari muvaffaqiyatli tarzda hal etilgan (oxirgi 5 yilda o'sish sur'atlari 8,5 foizni tashkil etgan) bo'lsada bu yo'nalishda o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolar turkumiga iqtisodiy samaradorlik va ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligini kiritish mumkin.

Haqiqatan ham milliy iqtisodiyotda samarali xo'jalik yuritish, mehnat unumdarligini uzluksiz oshirib borish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, iqtisodiy o'sishni asosan ekstensiv usullar yordamida ta'minlash hamon iqtisodiy amaliyotda mavjud bo'lib turibdi.

Aytib o'tilgan etilgan muammolarni bartaraf etish va innovatsion faollikni ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarini amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz:

fanni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirish, ishlab chiqarishga innovatsion mahsulotlarni joriy etish uchun iqtisodiy va moliyaviy jihatdan tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur;

ta'lim, fan va ishlab chiqarishning axborot ta'minoti, axborot telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish, konsalting-injiniring xizmatlarini rivojlantirish;

innovatsion faoliyat va innovatsiyalarning huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish, innovatsiya sohasi bilan bog'liq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq imtiyozlar qo'llash;

ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik faoliyati sub'ektlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish;

yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va modernizatsiyalash sharoitiga, talabiga javob beradigan zamonaviy bilim va malakaga ega kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Olib borgan izlanishlarimizdan kelib chiqib O'zbekistonda fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyatni jadallashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni zarur deb, hisoblaymiz:

davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan, muhim ustuvor yo'naliishlarda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqotlar, ya'ni fundamental va amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarishning real sektori mudofaa sohasida tajriba-konstrukturlik ishlari, atrof muhitni muhofaza va ekologiya sohasidagi tadqiqotlarni barcha turdag'i soliqlar va yig'implardan ozod qilish;

ijtimoiy sohaning ustivor yo'naliishlari bo'yicha olib borilayotgan innovatsion faoliyatni soliqlar yordamida sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalarga imtiyozlar tizimini qo'llash;

ekspertizadan o'tgan yuqori samarali investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun va import qilinadigan jihozlar, uskunalar, materiallar, litsenziyalar, nou-xaularni qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona to'lovlaridan ozod qilish yoki bojlarni kamaytirish.

Industrial rivojlangan yoki jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlarda Fan-texnika taraqqiyoti va uning negizida iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda (3.3-jadval). Bizning nazarimizda O'zbekistonda innovatsion rivojlanishni ta'minlashda ustivor vazifalardan biri ITTKIga ajratilayotgan mablag'lар miqdorini keskin oshirish zarur.

### 3.3-jadval

#### Dunyo bo'yicha 2019 yilda ITTKIga qilingan xarajatlarda davlatlarning ulushi

t/r	Davlatlarning nomi	ITTKIga qilingan umumiy xarajatlarda	
		(mlrd.AQSh doll.da)	Dunyoda ITTKIga qilingan xarajatlar (% da)
1.	AQSh	389,2	35,0
2.	Yaponiya	139,6	12,6
3.	Xitoy	123,7	11,1
4.	Germaniya	67,9	6,1
5.	Janubiy Koreya	41,3	3,7
6.	Frantsiya	41,1	3,7
7.	Buyuk Britaniya	37,2	3,3
8.	Hindiston	28,1	2,5
9.	Kanada	23,2	2,1
10.	Rossiya	21,7	2,0
11.	Italiya	18,6	1,7
12.	Braziliya	18,0	1,6
13.	Tayvan	17,5	1,6
14.	Ispaniya	17,2	1,6


15.	Avstraliya	14,9	1,3
16.	Shvetsiya	11,4	1,0
17.	Niderlandiya	10,4	0,9
18.	Isroił	8,8	0,8
<b>Jami</b>	<b>1112,5</b>	<b>100</b>	

Tahlillar ko'rsatadiki dunyoda 2010 yilda ITTKIga eng katta xarajat qilayotgan davlat AQSh bo'lib, jami xarajatlarga nisbatan uning ulushi 35 foizni yoki 389,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Keyingi o'rirlarni Yaponiya, Xitoy va Germaniya davlatlari egallagan. Bu ko'rsatkich bo'yicha Rossiya 10 o'rindan joy olgan.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak mamlakatimizda bu sohada qilinadigan ishlar salmog'i g'oyat katta. Bugungi kunda aytish mumkinki dunyo fan-texnika taraqqiyoti markazlari quyidagi davlatlar va hududlarda joylashgan (1-chizma).

### 1-chizma

Dunyo bo'yicha 2011 yilda ITTKI ga qilingan xarajatlar salmog'i<sup>21</sup>



Raqamlardan ko'rinish turibdiki AQShdan keyingi asosiy markaz Evropa davlatlari, Yaponiya, Xitoy hisoblanadi.

<sup>21</sup> Манба: Battelle, R&D Magazine, OECD, IMF, CIA

O'zbekistonda innovatsion rivojlanishga o'tish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va qabul qilingan chora-tadbirlar ko'zga ko'rinarli bo'lsada, talab darajasidan ancha yiroq. Chunki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirishning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlarni innovatsion faoliyatga o'tkazish, soliqqa tortish, boj-ta'rif, eksport-import va konvertatsiya masalalarida rag'batlantirishning yagona tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Oqilona soliqqa tortish, soliq imtiyozlarini qo'llash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini, xususan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, texnik-texnologik yangilash va pirovardida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun tabaqalashgan soliq imtiyozlari tizimini yaratish bugungi kunda dolzarb muammodir.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazishda quyidagi muammolar mavjud:

innovatsion iqtisodiyotga o'tishda zarur bo'lган investitsiyalarning mamlakat hududida notejis taqsimlanganligi va infratuzilmaning tegishli darajada yaratilmaganligi;

mamlakatda fan-texnika taraqqiyoti bilan ishlab chiqarish aloqadorligining zaifligi, yaratilgan ixtiolar, yangiliklar, kashfiyotlarning ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etishning mukammal mexanizmining yo'qligi;

respublikada innovatsion rivojlantirishni ta'minlashning strategik rejasi, dasturining to'liq yaratilmaganligi va bu jarayonda istiqbolli rejalashtirish, prognozlash dastaklaridan samarali foydalanilmayotganligi;

iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligi mezonlarining ishlab chiqilmaganligi va investitsiyalarning moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan kamroq kiritilmayotganligi.

Modjulda mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash va bu jarayonda soliq siyosati, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish masalalarini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rivojlangan davlatlardan innovatsion mahsulotning rasmiy-huquqiy shakli bo'lган patent, litsenziyalarning kam xarid qilinishi va oqibatda zamonaviy texnika-texnologiyalarning milliy iqtisodiyotga sust joriy etilishi.

2. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning moddiy asosi hisoblangan texnopolislardan, texnoparklardan, biznes inkubatorlар va ilmiy-texnik markazlarning tashkil etilmaganligi innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi katta muammolardan biri hisoblanadi va ularni zudlik bilan tashkil etish choralarini ko'rish zarur.

3. Erkin iqtisodiy zonalar(EIZ) – innovatsion iqtisodiyotning moddiy, texnik-texnologik asosini yaratuvchi manbalar hisoblanadi. Ularning tashkil etishning huquqiy-tashkiliy masalalarini hal etish va sonini ko'paytirishning chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish lozim.

4. Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatdorligini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga rag'batlantiradigan soliq siyosatini yuritish uchun mol-mulkni diversifikatsiya qilish, qimmatbaho qog'ozlarga

investitsiya kiritishga rag'batlantiruvchi soliq tizimini qo'llash va mol-mulkni soliqqa tortishni takomillashtirish zarur. Regionlar iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun soliq tushumlarini markaziy va mahalliy byudjet o'rtasida oqilona taqsimotiga erishish g'oyat muhim masaladir.

### **Nazorat uchun savollar.**

Inson kapitalining yuksak sifati, darajasi va unga yo'naltirilgan investitsiyalar sarfining yuqoriligi.

Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va sog'lom turmush tarzi.

Jamiyatda faol bo'lган malakali mutaxassis kadrlar toifasining shakllanganligi, inson salohiyati va iqtisodiy erkinlik indeksining yuksakligi.

Fundamental va amaliy tadqiqot fanlarining yuqori darajada rivojlanganligi.

Mamlakatda texnologik rivojlanishni ta'minlaydigan kuchli, intelektual-ilmiy markazlar – texnoparklarning tashkil etilganligi.

Davlat tomonidan vechur biznesi, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi samarali tizimning mavjudligi.

Mamlakat hududida davlatning texnologik va ilmiy rivojlanishini ta'minlovchi transmilliy korporatsiyalar(TMK)ning mavjudligi.

### **3-mavzu: Innovatsion rivojlanishning chet el tajribasi va milliy uyg'unligi.**

#### **Reja**

- Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlantirish asoslari.**
- Mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlar.**
- Ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat roli.**

Tayanch iboralar: Innovatsion salohiyat, rivojlangan innovatsiyalar, rivojlanayotgan innovatsiyalar, ilmiy hamkorlik, uch spiral tizimi, loyihalar samaradorligi, innovatsiya markazlari, ta'lim va innovatsiya, innovatsiya indikatorlari, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar, innovatsion imkoniyatlar.

#### **1. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlantirish asoslari.**

Dunyo iqtisodiyotining etakchi davlatlari tajribasi iqtisodiy o'sish – bu to'g'ri tanlangan investitsiya siyosati ekanligini ko'rsatadi. Samarali investitsiya siyosatida asosiy e'tibor mavjud resurslar, investitsiyalar sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlab olish, investitsiyalarni aniqlangan istiqbolli yo'nalishlarga safarbar qilishdir. Bu erda so'z moliyaviy resurslar hajmida emas, balki investitsiyalardan kelgusida eng yuqori mehnat unumdarligi va ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga asos, shart-sharoit yaratish xususida bormoqda.


Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun iqtisodiyotni rivojlantirish uchun fanning turli sohalarini qamrab olgan ilmtalab ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik vazifa sifatida qo'yilmoqda.

Ushbu mamlakatlarda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri ilmiy tadkikot tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) yalpi ichki mahsulotning 3 foizgacha bo'lgan mablag'ning doimiy ajratilishidir. Ushbu tadbir natijasida fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishiga erishishga, mamlakatda g'oyat ko'plab ixtiolar, yangiliklar, g'oyalar vujudga kelishiga tegishli sharoit yaratiladi. Innovatsion taraqqiyotni ta'minlashga kuchli ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil bu inson kapitali va davlatda shakllangan texnik-texnologik uklad hisoblanadi.

Biz innovatsion rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardan Yaponiya, AQSh, Xitoyning shu yo'nalishdagi tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Yaponianing innovatsion rivojlanish tarixi, yangiliklarga investitsiya kiritish usuli – iqtisodiyotni rivojlanirishning o'ziga xos yo'nalishi hisoblanadi. Yaponianing Ikkinchı Jahon Vatan urushidan keyingi iqtisodiy ahvoli g'oyat ayanchli bo'lgani tarixdan ma'lum. Yaponiya iqtisodiyotini rivojlanirish uchun esa moliyaviy resurslarni topish imkonи deb hisoblab, dunyo jamoatchiligi va g'arb ekspertlari Yaponiyani abadiy qashshoqlikka mahkum etilgan davlatlar qatoriga kiritib qo'ygan edi. Yaponiya 1950 yillardan boshlab texnoparklarni jadal sur'atlar bilan tashkil etish yo'lidan borib, chet eldan juda ko'plab patentlar va litsenziyalar sotib olindi. Yaponiya iqtisodiyotiga g'oyat katta hajmda chet el texnologiyasining kiritilishi qisqa vaqt ichida yangidan zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishga sharoit yaratadi. 1960 yildan boshlab esa Yaponiya xorijiy texnologiyalar bilan bir qatorda o'zining xususiy texnika-texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor bera boshladi. Yaponiyada o'tgan asrning 80-yillarida Tashqi savdo va sanoat vazirligi tomonidan "Texnopolis" dasturi asosida 14 shaharda 18 ta texnopolis tashkil etildi. "Tsukuba" texnopolisi ularning ichida eng yirigi bo'lib, 28 ming ga maydonni egallagan, 145,0 ming kishi faoliyat ko'rsatadi<sup>22</sup>. Aynan yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish Urushdan keyingi yillarda Yaponianing qisqa vaqtida tiklanishiga va jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keldi. Yaponianing innovatsion rivojlanishining o'ziga xos jihat shundaki davlatga nisbatan xususiy biznes, xususiy kompaniyalar yangi texnika-texnologiyalarni kashf etib, tanqis bo'lgan moliyaviy resurslarni, investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb eta boshladi. Davlat bilan bir qatorda xususiy biznes tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya siyosatini faollashtirish, mamlakatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini berdi. Yaponiya hukumati bilan xususiy biznesning g'oyat chuqur o'ylangan, kelishilgan hatti-harakati Yaponiya davlatini iqtisodiy halokatdan qutqarib qoldi. va Yapon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minladi. Yaponianing innovatsion rivojlanish tajribasi ko'rsatdiki, nafaqat yangiliklar, ixtirolarni kashf etishga kapital, investitsiya, balki kapital uchun ham yangiliklarqilinishi shartligi va ulardan samarali foydalananish zarurligi ham muhim omil ekanligi aniqlandi.

Yaponiya iqtisodiyotida eng yuqori markazlashuv – bu fan-texnika taraqqiyotini ta'minlash sohasida kuzatiladi. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi davlat nomidan yagona markazdan turib boshqarish vazifasini bajaradi. Bunday boshqaruv tizimi AQShda va G'arbiy Evropa davlatlarida yo'q bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad – strategik, uzoq muddatli, istiqbolli davlat dasturlarini o'zida mujassam etgan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, rivojlantirish, realizatsiya qilish hisoblanadi. Yaponiyada ITTKI larning markazlashuvi va ularni tartibga solish uchun fanni moliyalashtirish vazirliklar tomonidan amalga oshiriladi va doimiy amal qiluvchi yirik, milliy laboratoriyalar amal qiladi. Shuningdek davlatdan yirik buyurtmalar oladigan markazlashgan yirik korporatsiyalarning ilmiy majmualarini rivojlantirish xalqaro institutlar, dasturlar va loyihalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.



### 1.5-chizma. Yaponiya innovatsion rivojlanishining asosiy yo'naliishlari<sup>23</sup>

Yaponiya innovatsion rivojlanish tajribasining yana bir qirrasi – bu xususiy biznes vakillarining innovatsion rivojlanishga faol ishtirokidir. Buning zaminida ikkita motiv bo'lib, birinchisi – vatandarvarlik, ikkinchi – innovatsion faoliyatga kiritilgan

<sup>23</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чикилган

kapital qaytimi, samaradorligi, an'anaviy faoliyat turlariga nisbatan ancha yuqoriligidir.

Chizmadan ko'rindiki, Yaponianing innovatsion rivojlanish yo'nalishlari g'oyat keng qamrovli bo'lib, uni bir o'ziga xos jihat iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda texnik-texnologik yangilashda tabiat va jamiyat uyg'unligi, turli aholi qatlamlarining manfaatlari ham inobatga olinishidir. Yaponiya xususiy biznes vakillariga davlat tomonidan berilayotgan "soliq krediti" imtiyozi innovatsion rivojlanishni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Yaponiyada xususiy biznes tomonidan samarali, lekin yuqori xavf-xatarli loyihalarning amalga oshirilishida davlat loyiha ishtirokchisi, biznes-partnyor sifatida ma'lum riskni o'ziga oladi va xususiy biznesni qo'llab quvvatlaydi.

Yaponiya innovatsion siyosatini boshqaruv tizimining yana bir o'ziga xos tomoni innovatsion rivojlanishni ta'minlashda gorizontal aloqalarning kuchliligi, yirik loyihalar muhokamasida davlat, xususiy tashkilotlarining faol ishtirok etishi; fan, texnika, texnologiya, boshqaruv va boshqa sohalarda, davlat boshqaruvining barcha dastaklarida innovatsiyalardan samarali foydalanish o'rtasidagi integratsiyaning mavjudligidir. Innovatsion jarayonlarni monitoring qilish va prognozlash maqsadida "Aqliy" tadqiqot markazlari keng rivojlanganligi.

Bugungi kunda Yaponiyada 23 ta erkin import zonasasi, 19 ta texnopolislardan, 300 taga yaqin davlat va xususiy ilmiy-texnik markazlar ishlab turibdi. Yaponianing innovatsion rivojini rejalashtirish AQShnikidan eng katta farqi – bu ITTKIni rejalashtirishning samaradorligini aniqlash mexanizmining mavjudligidir.

Yaponiyadan innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtirish uchun ITTKI sub'ektlariga soliq, amortizatsiya va boshqa iqtisodiy imtiyozlar tizimini qo'llash amaliyoti keng qo'llanilgan. Masalan, ITTKI sub'ektlari faoliyati natijasida olinadigan foydadan soliq olmaslik, o'sha soliq bazasini ularning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlashga yo'naltirish, import operatsiyalaridan imtiyozli boj-ta'rif siyosatini qo'llash amaliyoti keng tarqalgan. Masalan, Yaponiyada bugungi kunda ITTKIga ajratilayotgan mablag'lar AQShga nisbatan –11,0 marta, Germaniyaga nisbatan –8,4 marta kamdir. Bu nafaqat davlatning byudjet mablag'larini tejashi, balki bu xususiy biznesning ishlab chiqarishga "nou-xau"larni tatbiq etishdagi roli va manfaatdorligi ko'rsatkichi hamdir.

Xitoy Xalq Respublikasining innovatsion rivojlanish yo'li ham o'ziga xosdir. Xitoy Xalq Respublikasining XX-asr oxiri XXI-asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, aholining jadal sur'atlar bilan o'sishi, energiya resurslarning etishmasligi, hududlarning notejis rivojlanganligi, ekologiyaning yomonlashuvi va inflyatsiyaning g'oyat yuqoriligi kabi dolzarb muammolar bilan tavsiflanar edi. Xitoy hukumati mazkur muammolarning echimini investitsiyalar orqali hal etish yo'lini tanladi. Xitoyning innovatsion rivojlanishining o'ziga xos tamoyili chet eldan investitsiyalarini jalg qilish va tayyor texnologiyalarni xarid qilish, ishlab chiqarishga tatbiq etishdan o'zining xususiy innovatsiyalarini yaratish va yuqori texnologiyali brendlarni vujudga keltirishga ustivorlik berganligida ko'rindi. Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar 1978 yilda boshlanib, davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun g'oyat katta imkoniyatlar yaratdi. Xitoy ham Yaponiya

kabi o'zining innovatsion rivojlanishining chet eldan patentlar, litsenziyalar xarididan boshlab zamonaviy sanoat tarmog'ini shakllantirishga muvaffaq bo'lди.

Xitoyning innovatsion rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin bo'lib, 1-bosqichi 1978-1982 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ)ga sarmoyalarni jalb etishning huquqiy-shartnomaviy, tashkiliy asoslari vujudga keltirildi. Bu jarayonda soliqqa tortish, texnologiyalarni qabul qilish va tarqatish, mehnat munosabatlari, valyuta va bojaxona masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari to'plami qabul qilindi. Soliqqa tortishda misli ko'rilmagan imtiyozlar berildi, mamlakatda korxona foydasidan olinadigan soliq stavkasi – 33 foiz bo'lgan holatda, erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda bu ko'rsatkich – 15 foizni tashkil etgan edi. Innovatsion rivojlanishning 2-bosqichi 1983-1989 yillarni qamrab olib, shu davrda Xitoyga chet el kapitalini nafaqat erkin iqtisodiy zonalarga, balki davlatning boshqa hududlariga ham kiritish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yana kuchaytirish, kengaytirish, qonunchilikni yana takomillashtirish masalalari muvaffaqiyatli hal etildi. 2 - bosqichda erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalarning ishlab chiqargan mahsulotining 50 foizi eksport qilindi, bu zonalardagi infratuzilmalarni barpo etishning 80 foiz xarajatini Xitoy hukumati o'zi zimmasiga oldi. Xitoyda 1990 yildan innovatsion rivojlanishning 3-bosqichi boshlanib, bugungi kunda mamlakatda mavjud bo'lgan texnik-texnologik tartibning poydevoriga aynan shu bosqichda asos solindi<sup>24</sup>.

Xitoyning sohilbo'yi hududlarini rivojlantirish strategiyasida sanoat va texnologik rivojlanishni ustivor yo'naliш sifatida belgilandi. Xitoy iqtisodiyotini innovatsion yo'naliшha o'tkazishning dastlabki qadamlari sifatida mamlakatning chekka, port shaharlarida EIZ tashkil etildi. Amalga oshirilgan ushbu tadbir natijasida Xitoyga sarmoya kiritish avj oldi va bu holat Evropa, AQSh, Yaponiyadan dastlab Xitoyga chet eldan ko'p qo'l mehnati talab qiluvchi, keyinchalik esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Xitoy hududida joylashgan EIZlar dunyoda eng katta bo'lib hisoblanadi. Ularning dunyodagi boshqa erkin iqtisodiy zonalardan farqi ularni ko'p tarmoqli ekanligi, sanoat rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirilganligidir. Xitoyda erkin iqtisodiy zonalarning rivojlanishi bilan ularning tabaqlashuvi ham sodir bo'ldi. Xitoy bugungi kunda yuqorida qayd etilgan tadbirlar natijasida dunyoning eng yirik eksportyor davlatiga aylandi. Bugungi kunda Xitoyda turli darajada 120 ta yangi va yuqori texnologiyani o'zlashtiruv zonalar, shundan 53 tasi davlat ahamiyatiga molik zonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 137 ta yangi korxonalarni tashkil etuvchi servis-markazlar ishlab turibdi<sup>25</sup>. Xitoyning innovatsion rivojlashining yana bir ustivor tamoyillaridan biri strategik rejorashtirish, prognozlash, dasturlash kabi iqtisodiy dastaklardan yuqori samara bilan foydalanishdir. Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning "Prognoz-2050" strategik dasturi ishlab chiqilgan va iqtisodiy hayotga muvaffaqiyat bilan tatbiq etilmoqda.

---

24 <http://catalog.fmb.ru/china/10.shtml>. сайтидан олинган материаллар.

25 Экономическое обозрение №12(134) 2010, стр.32-33.

AQShda innovatsion faoliyatni tashkil etishda davlatning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar Yaponiyada innovatsion faoliyatni tashkil etishda xususiy biznes ustivor va uning salmog'i katta bo'lsa, AQShda esa innovatsion faoliyat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, boshqariladi va muvofiqlashtiriladi (1 - jadval).

### 1-jadval.

#### **AQShda davlat tomonidan innovatsion faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari<sup>26</sup>**

T/r	Davlat organlari nomlari	Vazifasi
1	Amerika ilmiy jamg'armasi	Mamlakatda olib borilayotgan fundamental tadqiqotlarni boshqaradi va muvofiqlashtiradi.
2	Amerika ilmiy kengashi	Sanoat sohasidagi ilmiy tadqiqotlar olib boradi va ilmiy-o'quv jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi.
3	NASA	Agrokosmik tadqiqotlarni olib boradi
4	Milliy standartlar byurosi	AQShda ishlab chiqarilgan, mamlakatga kiritilayotgan tovarlar, xizmatlarni standartlash ishlarini tashkil etadi va boshqaradi.
5	Mudofaa vazirligi	Harbiy mudofaa sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.
6	Sanoat tadqiqotlari Milliy markazi	Sanoat bilan boshqa tarmoqlar, sohalar integratsiyasini ta'minlovchi ilmiy-tadqiqotlarni olib boradi.
7	Milliy fanlar akademiyasi	Mamlakat miqyosida olib borilayotgan fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.
8	Milliy texnika akademiyasi	Amerikani modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilashga oid tadqiqotlarni tashkil etadi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi.
9	Amerika rivojlanishiga ko'maklashuvchi assotsiatsiya	Barcha fanlarni rivojlantirish, takomillashtirish, boyitishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqaradi va amalga oshiradi.

Jadvalda keltirilgan 9 ta tashkilotdan 1-5 qatorda joylashganlari to'liq byudjetdan, qolgan 4 ta esa aralash moliyalashtiriladi, ya'ni 50 foizi xususiy biznes tomonidan, 46 foizi byudjetdan, qolgani esa boshqa manbalardan moliyalashtiriladi. AQSh innovatsion rivojlanishining o'ziga xos jihat - bu davlat ahamiyatiga molik yirik ilmiy loyihalar davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi. Mazkur loyihalarni ishlab chiqish, realizatsiya qilish vechur jamg'armalari va tadqiqot markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion rivojlanishni ta'minlashning muhim shart-

<sup>26</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чикилган

sharoitlaridan biri – tegishli infrastruktura yaratishdir va bu muammo ham davlat tomonidan hal etiladi.

AQShda yangiliklar va ixtirolarni tarqatish, ularni tushuntirish, reklama qilish markazlari keng tashkil etilgan. Davlat bir tomonidan investitsiyalarning yaratuvchisi sifatida ishtirok etadi va boshqa tomonidan esa, ularning iste'molchisi ham o'zi hisoblanadi. Investitsiyalar uchun mas'ul davlat organlari mamlakatda va chet ellardagi innovatsion jarayonlarni kuzatib boradi eng ilg'or texnologiyalarni topish, ularni ekspertiza qilish, keng tarqatish kabi amaliy ishlarni bajaradi va prognozlash ishlarini amalga oshiradi. AQShda innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliq tizimi imtiyozlaridan samarali foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan. AQShda intelektual mulk sub'ektlari va ob'ektlarini soliqqa tortishda bir qator imtiyozlar qo'llaniladi. Masalan, AQShda intelektual mulk ob'ektlarini (IMO) soliqqa tortishda qo'llaniladigan soliq – bu daromad solig'idir. Agar intelektual mulk ob'ektlarni oldi-sotdi operatsiyalari jarayonida barcha qilingan harajatlar soliq bazasidan chiqarib tashlanadi.

Amerika soliq kodeksida intelektual mulk ob'ektlarni tashkil etishda ularni tashkil etishga qilingan va to'lab berilgan harajatlar, odatiy va zaruriy harajatlar soliq bazasidan chiqarib tashlanadi. AQShda IMOni sotishda ham sotuvchi-soliq to'lovchiga bir qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Masalan, agar litsenziya sotish orqali olingan daromaddan birlamchi soliq bazasidan olingan stavkadan soliq olinadi, ustav kapitalidan emas.

Dunyoning innovatsion rivojlangan davlatlari (AQSh, Yaponiya) va jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan (Xitoy) davlatlarida yuritilayotgan samarali soliq va boshqa imtiyozlar tizimi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

mualliflik huquqi va intelektual mulkning dahlsizligini iqtisodiy-ma'naviy jihatdan ta'minlash;

ITTKIdan olinayotgan foydadan olinadigan soliqning bir qismi yoki to'liq hajmini o'sha sohaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyoriga qoldirish;

yirik, davlat ahamiyatiga molik loyihalarni realizatsiya qilayotgan loyiha ishtirokchilariga "soliq ta'tili" tizimini qo'llash;

innovatsion faoliyat ishtirokchilarining olayotgan dividentlari, foydasini imtiyozli soliqqa tortish;

innovatsion faoliyat sub'ektlarining ehtiyojlari uchun qilinadigan tovar-moddiy boyliklarni xarid qilishda imtiyozli soliq, boj-tarif tizimini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlar.

Industrial rivojlangan davlatlarda muomaladagi pul massasi bilan tovarlar, xizmatlar qiymatining massasi o'rtaqidagi nisbatning keskin buzilishi sodir bo'ldi va bunday noxush holatlar dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan texnologik, energetik, ekologik muammolarni yanada murakkablashtirib ularni dolzarb masalalarga aylantirmaqda. Mazkur muammolar esa o'z navbatida jahon xo'jaligida globallashuv tendentsiyalarini kuchaytirib, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tamoyillari, shakllari, yo'nalishlarini o'zgartirmoqda va pirovardida bu holatlar milliy xo'jaliklarga salbiy ta'sir etmoqda.

Ma'lumki bugungi kunda industrial rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish omillari oldingidek kapital, mehnat va ishlab chiqarish vositalarigina bo'lib qolmasdan balki iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida yuqori sifatli sanoat mahsulotlari, raqobatbardosh intelektual mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlovchi bilimlar, g'oyalar va yangi texnologiyalar yuzaga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov "Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaqa va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ob'ektiv shart qilib qo'yemoqda" deb, e'tirof etgan edi.<sup>27</sup>

Dunyo iqtisodiyotida oxirgi yillarda sodir bo'lган va davom etayotgan inqirozli jarayonlar milliy iqtisodiyotlarda ham har tomonlama puxta o'ylangan iqtisodiy siyosat yuritishni taqoza etmoqda. Darhaqiqat, jahon iqtisodiyotining barqaror o'sishi uchta global omil, ya'ni ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasi, innovatsion faoliyat olib boruvchi institutlar va sub'ektning samarali faoliyati, mamlakatda olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosat va uning natijasida shakllantirilgan mo'tadil investitsiya muhiti hal etuvchi omil bo'lib qolmoqda. Agar yuqorida keltirilgan omillar misoldida mamlakatimizda innovatsion rivojlanish holatini tahlil qilinadigan bo'lsa quyidagilarni aytish joiz bo'ladi. Sanoati yuksak rivojlangan davlatlar (AQSh, Angliya, Frantsiya) tajribasi, jo'shqin rivojlanish pallasini boshidan kechirayotgan davlatlar (Malayziya, Singapur, J.Koreya, Tailand)da olib borilayotgan islohotlar tajribasidan ko'rindan iqtisodiyot innovatsion-intelektual tavsifga ega bo'lib bormoqda. Ma'lumki, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi samarali investitsiya va innovatsion siyosati, ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlik tamoyillari asosida ta'minlanmoqda.

Qaysi iqtisodiy makonda tadbirkorlikka keng yo'l, takomillashgan raqobat mexanizmi, mo'tadil investitsiya muhiti va oqilona investitsiya siyosati yuritilsa o'sha hududda iqtisodiy rivojlanish innovatsion tavsifga ega bo'ladi, iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanadi va qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan qoloq davlatlarning industrial rivojlangan davlatga aylanishiga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan xalqaro iqtisodiyotdagi yangi tendentsiyalar, iqtisodiy o'sish, rivojlanish omillarining o'zgarishi o'z navbatida innovatsion iqtisodiyotga o'tishni hayotiy zaruratiga aylantirmoqda. Shuningdek, bu jarayonda bir qator omillar, shart-sharoitlar innovatsion iqtisodiyotga o'tishni taqoza etmoqda (2.1 - jadval).

**Innovatsion rivojlanishga o'tish zaruriyatini belgilovchi omillar 28**


<b>Omillar</b>	<b>Funktional vazifasi</b>
Iqtisodiyotda davriylik tavsifiga ega bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning vaqtiga bilan sub'ektlarning inqirozdan chiqish uchun o'z sodir bo'lib turishi	Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tangliklarning chiqishi va xo'jalik yurituvchi faoliyatiga ixtiolar va yangi yondashuvlarni qo'llashning dolzarb masalaga aylanishi.
Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning mustaqilligi raqobatbardoshligini ta'minlash	Bozor ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarishni texnik-texnologik yangilash, modernizatsiya qilishga o'tilishi.
Tabiiy, iqtisodiy va mineral resurslarning cheklanganligi	Resurslardan tejamkorlik bilan samarali foydalanish va shu maqsadda zamонавиу texnologiyalar, standartlar ishlab chiqilishi hamda ishlab chiqarishning alternativ usullariga o'tishi.
Aholi sonining uzluksiz ravishda oshib borishi	Dunyo, mamlakatlar aholisining o'sishi, ehtiyojlarning tabiiy va o'z-o'zidan uzluksiz oshib borish tendentsiyasining vujudga kelishi.
Milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi asosiy fondlarning eskirish darajasining yuqoriligi	Davlat va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun asosiy fondlarni yangilash muddatlarini qisqartirish orqali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish.

Jadvaldan ko'rindiki, innovatsion iqtisodiyotga o'tish zaruratini iqtisodiyotda davriylik tavsifiga ega bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning vaqtiga bilan sodir bo'lib turishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mustaqilligini va raqobatbardoshligini ta'minlash, tabiiy, iqtisodiy va mineral resurslarning cheklanganligi, aholi sonining uzluksiz ravishda oshib borishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlari, sohalaridagi asosiy fondlarning eskirish darajasining yuqoriligi kabi omillar kiradi. Ushbu omillarning har biri muayyan funktional vazifani bajaradi. Mazkur omillar har bir milliy davlatni innovatsion rivojlanish yo'lini tanlashga majbur etadigan va mamlakatda esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan omillar hisoblanadi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni innovatsion ishlab chiqarishga o'tkazish nafaqat fan-texnika taraqqiyotiga, sanoatda yangi tarmoqlarning rivojlanishiga balki iqtisodiyotning barcha soha, tarmoqlarini yangilash, modernizatsiya qilish, ularga yangi texnologiyalarni kiritish hamda jamiyat hayotining ma'naviy, ma'rifiy tomonlarini, boshqaruv tizimini, uning usullari, yo'llarini takomillashtirish hamda ijtimoiy ongni yuksaltirishni ham shart qilib qo'ymoqda. 2008 yil AQSh

iqtisodiyotining ipoteka bozoridan boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz dunyo mamlakatlarining innovatsion faollikni jadallashtirishini hayotiy zaruriyatga aylantirdi. Ma'lumki, har bir inqirozdan chiqishning yangi usullari innovatsiyalarga asoslangan yangi texnik-texnologik yo'naliishlarni vujudga keltiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, nazariy jihatdan inqirozdan chiqish yoki uni inqirozdan saqlanishning asosiy yo'llaridan biri bu – iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga o'tishdir.

Innovatsion iqtisodiyotning asosiy belgilari, ya'ni mezonlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi (1-chizma).



2.1.- chizma. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish mezonlari<sup>29</sup>

29 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

Chizmada keltirilgan mezonlarga ko'ra O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalasining qay holatda ekanligiga baho berish mumkin bo'ladi. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanishini aks ettiruvchi mezonlarning asosiylari sanoatning rivojlanganlik darajasi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, YaIMda ITTKIga qilingan xarajatlar salmog'i, YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi, mamlakatda qilingan va ro'yxatga olingan ixtiolar, kashfiyotlar, patentlar soni va ularning tijoratlashuv darajasi hisoblanadi.

Ma'lumki, innovatsion rivojlanishning asosini sanoat tarmog'i va uning turli yo'nalishlari tashkil etadi. Shu naqtai nazardan O'zbekistonning innovatsion rivojlanishining hozirgi holati, istiqboli haqida so'z yuritishni sanoat tarmog'inining tahvilidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi va yalpi ichki mahsulotda sanoat mahsulotining ulushi –55 foizni tashkil etadi (2010 yil yakuniga ko'ra).30 Mamlakatimizda sanoatning mashinasozlik, engil sanoat, paxta tozalash va qayta ishlash, gaz, rangli metallurgiya, elektrotexnika, radioelektronika va priborsozlik sohalari rivojlangan. Keyingi yillarda sanoatning nefti-gaz, nefti-kimyo, energetika, metallurgiya va avtomobilsozlik sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sanoat tarmog'inining 100 ortiq yo'nalishlarida 2200 dan ortiq kontsern, ishlab chiqarish birlashmalar, korxonalar tomonidan engil va yuk avtomobili, traktorlar, samolyotlar, paxta terish mashinalari, kabel, tekstil stanoklari, lift, kran, turli transformatorlar, kompressor stantsiyalari, mineral o'g'itlar va x.k. kabi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ma'lumki 1991 yilgacha respublikamizga -6,0 mln. tonnagacha neft mahsulotlari keltirilar edi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning neft-gaz tarmog'iga shu sohadagi dunyoning etakchi "Kellog" (AQSh), "Nisho Ivan" (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlikda Ko'kdumaloq neft kondensat koni rekonstruktsiya qilindi. 1997 yillar Buxoro nefti qayta ishlash zavodi "Tennip"(Frantsiya), "Marubeni"(Yaponiya) kompaniyalari yordamida modernizatsiya qilindi va ishga tushirildi. O'rta Osiyoda eng yirik polietilen va etilen "Shurtan gaz-kimyo kompleksi", "AAB Lamus Global"(AQSh), "Mitsun", "Nisho Ivan"(Yaponiya) xalqaro konsortsiumi tomonidan qurilib, ishga tushirildi. Sanoatning neft-gaz tarmog'iga kiritilgan chet el investitsiyasi ishtirokida shu sohada dunyoda yaratilgan eng zamonaviy so'nggi texnika va texnologiyalar joriy etildi. Mazkur sohaga innovatsion yondashuv tarixan qisqa davr ichida O'zbekistonning yoqilg'i-energetika mustaqilligini ta'minlashga moddiy asos yaratdi. Mustaqillik yillarida engil sanoatda 100dan ortiq chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalar tashkil etildi. "Kateks", "Elteks" qo'shma korxonasi, (Qoraqalpog'iston Respublikasi), "Kabul LTD" korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston engil sanoatida Germaniya, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya, AQSh, Hindistonlik investorlar tomonidan dunyo engil sanoatining etakchi kompaniyalari, ya'ni "Tsenzer", "Shlafxorst" (Germaniya), "Riter"(Shveytsariya), "Tayoda", "Murata" (Yaponiya), "Savio", "Orizio" (Italiya) tomonidan tarmoqqa

yuqori texnologiyali, zamonaviy ishlab chiqarish liniyalari kiritildi va bugungi kunda muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. O'zbekistonda engil va to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning 2010-2015 yillarga mo'ljallangan Dasturi doirasida tarmoqda -1,3 mlrd. AQSh dollari hajmida chet el investitsiyasini kiritish, qiymati -1,6 mlrd. dollarini tashkil etadigan 100 dan ortiq loyihami amalga oshirish, eksportni esa 2,0 mlrd. AQSh dollariga etkazish ko'zda tutilgan.

Elektrotexnika tarmog'ida ham "Algoritm", OAJ "Foton", OAJ "Zenit", OAJ "Sino" OAJ.ni modernizatsiya qilishga, ular tomonidan maishiy elektr texnikalari, jihozlarini ishlab chiqarishga -83,5 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritish rejalashtirilmoqda.<sup>31</sup>

### **3. Ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat roli.**

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim tamoyillaridan biri davlatning bosh islohotchilik roli va undan samarali foydalanishdir. Haqiqat ham Osiyo qit'asida yashovchi xalqlarning mentaliteti, urf-odatlari, ishlab chiqarish usullarida davlatga hamisha alohida vazifa yuklatilgan va tarixan bu o'zini oqlagan. Xususan, O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, respublikaning geografik joylashuvi, demografik omillar, aholi tarkibida yosh bolalar hissasining boshqa davlatlarga nisbatan ko'pligi va aholi o'sish sur'atlarining yuqoriligi davlatning rolini, ayniqsa iqtisodiyotni samarali makroiqtisodiy siyosat yuritish orqali tartibga solish masalalarida yanada dolzarb qilib qo'yadi. Bizningcha tabiatda zahiralari kamayib tugab borayotgan energiya manbalarini energianing alternativ manbalariga o'tkazish, iqtisodiyotda faqat xom ashyo, birlamchi ishlov berilgan mahsulotlar yoki yarim fabrikat ishlab chiqarish modelidan yuqori texnologiyalar asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan innovatsion modelga o'tkazish bugungi kunning eng dolzarb masalalari hisoblanadi. Chunki, milliy iqtisodiyotda mustaqillik yillarda tarixan qisqa davr (20 yil) ichida misli ko'rilmagan, asrga tatiguvlik yutuqlar va natijalarga erishdik.

Mamlakat miqyosida makroiqtisodiy mutanosiblik va muvozanatlikka erishish, barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi, tashqi savdo faoliyatining jadal sur'atlari bilan rivojlanishi, xususan eksport salohiyatimizning keskin oshganligi shular jumlasidandir. Lekin, qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda ayrim va o'z echimini kutayotgan jiddiy muammolar ham saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni umumlashtirib tavsiflaydigan bo'lsak –bu O'zbekiston iqtisodiyotida ko'proq ekstensiv o'sish ustivor bo'lgan an'naviy ishlab chiqarish, mavjud texnik texnologik ukladdan iqtisodiy o'sishni intensiv omillar hisobiga ta'minlaydigan, zamonaviy, modernizatsiyalashgan texnik-texnologik ukladini qaror toptirish negizida innovatsion ishlab chiqarishga o'tishdir. Innovatsion ishlab chiqarish modeli –bu milliy iqtisodiyotning barcha salohiyatidan samarali foydalanish, YaIM tarkibida tayyor

31 Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидағи (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари хамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлар. "ЎЗБЕКИСТОН"НМИУ, 2011-236.

mahsulotlar hissasini oshirish, iqtisodiyot, mamlakat raqobatbardoshligi ta'minlashdir. Innovatsion ishlab chiqarish aholi turmush darajasini keskin yuksaltirishning asosiy yo'li va texnik-texnologik asosi hisoblanadi.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki bizning iqtisodiyot sohasida erishgan yutuqlarimiz zamirida katta xarajatlar, qo'shimcha mablag'larni sarflash, iqtisodiyotning real sektor tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida tayyor mahsulotlar kam bo'lib, asosan tabiiy xom ashyo ishlab chiqarish va ularni eksport qilish ko'zga tashlanadi. Innovatsion usulda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi YAIM tarkibida g'oyat kam foizlarni tashkil etishi, iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdarligi ko'rsatkichlarning pastligi ham hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytmoqchimizki, respublikada yuritilayotgan makroiqtisodiy siyosatning ayrim jihatlarini zamon ruhiga moslashtirish, ya'ni yanada takomillashtirishni zarur deb, hisoblaymiz. Iqtisodiy amaliyotdan ma'lumki makroiqtisodiy siyosatning investitsiyalar, soliqlar va soliqqa tortish, boj-tarif, moliya-kredit, yo'nalishlarini yanada takomillashtirish hamda ularning ta'sirchanligini oshirish barqaror iqtisodiy o'sishni innovatsion yo'llar bilan ta'minlashga tegishli huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asos yaratadi deb o'ylaymiz.

Davlatning investitsiya siyosati – iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, texnik texnologik yangilash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy unsurlaridan biri kapital hisoblanadi va uning iste'mol va jamg'arishga sarflanadigan qismlari o'rtaсидagi nisbat muayyan tarzda oqilona bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari investitsiyalar manbai va hajmi ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotda asosiy fondlarni yangilab borish, tarmoq va sohalarni modernizatsiya qilish, o'sish sur'atlarini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda innovatsion rivojlanishga o'tish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va qabul qilingan chora-tadbirlar ko'zga ko'rinarli bo'lsada, talab darajasidan ancha yiroq. Chunki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirishning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlarni innovatsion faoliyatga o'tkazish, soliqqa tortish, boj-ta'rif, eksport-import va konvertatsiya masalalarida rag'batlantirishning yagona tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Oqilona soliqqa tortish, soliq imtiyozlarini qo'llash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini, xususan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, texnik-texnologik yangilash va pirovardida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun tabaqalashgan soliq imtiyozları tizimini yaratish bugungi kunda dolzarb muammodir.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazishda quyidagi muammolar mavjud:

innovatsion iqtisodiyotga o'tishda zarur bo'lган investitsiyalarning mamlakat hududida notekis taqsimlanganligi va infratuzilmaning tegishli darajada yaratilmaganligi;

mamlakatda fan-texnika taraqqiyoti bilan ishlab chiqarish aloqadorligining zaifligi, yaratilgan ixtiolar, yangiliklar, kashfiyotlarning ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etishning mukammal mexanizmining yo'qligi;

respublikada innovatsion rivojlanishni ta'minlashning strategik rejasi, dasturining to'liq yaratilmaganligi va bu jarayonda istiqbolli rejalashtirish, prognozlash dastaklaridan samarali foydalanilmayotganligi;

iqtisodiyotga jalg etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligi mezonlarining ishlab chiqilmaganligi va investitsiyalarning moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan kamroq kiritilmayotganligi.

Mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash va bu jarayonda soliq siyosati, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish masalalarini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rivojlangan davlatlardan innovatsion mahsulotning rasmiy-huquqiy shakli bo'lgan patent, litsenziyalarning kam xarid qilinishi va oqibatda zamonaviy texnika-texnologiyalarning milliy iqtisodiyotga sust joriy etilishi.

2. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning moddiy asosi hisoblangan texnopolislar, texnoparklar, biznes inkubatorlar va ilmiy-texnik markazlarning tashkil etilmaganligi innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi katta muammolardan biri hisoblanadi va ularni zudlik bilan tashkil etish choralarini ko'rish zarur.

3. Erkin iqtisodiy zonalar(EIZ) – innovatsion iqtisodiyotning moddiy, texnik-texnologik asosini yaratuvchi manbalar hisoblanadi. Ularning tashkil etishning huquqiy-tashkiliy masalalarini hal etish va sonini ko'paytirishning chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish lozim.

### **Nazorat uchun savollar.**

Dunyoning etakchi davlatlarida innovatsion tajribasini izohlab bering.

Innovatsion rivojlanishni ta'minlashga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan omillarni sanab bering.

Fan-texnika taraqqiyotiga erishish, mamlakatda ko'plab ixtiolar, yangiliklar, g'oyalar vujudga kelishining ob'ektiv va sub'ektiv sabablari.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyat ustun jihatlari nimalardan iborat.

Xorijda innovatsiyalarni xaraktlantiruvchi kuch nimalardan iborat bo'lgan.

Innovatsion rivojlanish borasida xorij mamlakatlar tajribasi va uni O'zbekistonga tadbiq etishning ahamiyati.

Innovatsion rivojlanish muammolari.

#### **4-mavzu. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi va ivojlanishi. Reja:**

- 1.O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.**
- 2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.**
- 3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.**

Tayanch iboralar: Milliy innovatsion tizim. Innovatsiyaga asoslangan iqtisod. Innovatsion muhit. Innovatsion erkinlik. Innovatsiya sohalari. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

##### **1.O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.**

Mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, fan va yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishda ommaviy ilmiy kashfiyotlar hamda tovar va xizmatlarning yangi istiqbolli bozorlarini yaratish bilan cheklanib qolmay, balki bиринчи navbatda, iqtisodiyotda bevosita taraqqiy etishning yangi mexanizmi sifatidagi, uning doirasida muntazam va to'xtovsiz ravishda iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli yangiliklar klasterlari yuzaga keladigan va faoliyat yuritadigan milliy innovatsion tizimlarini (MIT) yaratish eng samarali natija bo'lib hisoblanadi<sup>32</sup>.

Bunday tizimlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun nafaqat kuchli ilm – fan va ta'lif tizimi, balki institutsional sharoitlarning butun bir majmui talab etiladi.

Milliy innovatsion tizimi shakllantirish kontseptsiyasi o'tgan asrning 80 yillar boshidan rivojana boshladi. Bunda "milliy" so'zi tavsifi aynan "davlat" innovatsiya tizimi degan mazmunni anglatadi.

Turli mamlakatlarning milliy innovatsion tizimi bir biridan farq qiladi. Shu kungacha milliy innovatsion tizimining yagona ta'rifi mavjud emas. Shuningdek, turli mamlakatlar milliy innovatsion tizimi oldiga turli maqsadlar qo'yilishi mumkin. Frantsiyada milliy innovatsion tizimining asosiy vazifasi qo'shimcha ish o'rnlari tashkil qilish, Germaniyada ilg'or texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat, deb hisoblanadi. Bunda evropalik ekspertlarning bergen baholariga ko'ra, har ikki milliy innovatsion tizimning umumiy samaradorligi deyarli bir xil.

Innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga na davlat turi, na siyosiy tadbirlar ta'sir ko'rsata oladi. Innovatsiya faoliyati federal davlatlarda ham (AQSh, Germaniya), unitar davatlarda ham (Frantsiya), konstitutsion monarxiya davlatlarida ham (Buyuk Britaniya, Gollandiya, Ispaniya), shuningdek kommunistik tartibga ega davlatlarda (Xitoy) ham muvaffaqiyatli rivojlanaveradi. Bunda umumiylig shundaki, xorijda innoavion jarayolarning rivojlanishi barqaror siyosiy vaziyat va barqaror faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot sharoitida yuz beradi.

Milliy innovatsion tizimi kontseptsiyasi Evropa ittifoqining bir qator a'zo mamlakatlarida, shuningdek, AQSh va Yaponiyada keng rivojlangan. Milliy innovatsion tizimi innovatsion faoliyat sub'ektlari majmuidan, ular o'rtasidagi bilimlarning yuzaga kelishi, tarqalishi va ulardan foydalanish jarayonlarini ta'minlab

32 Ўзбекистон: жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, инновацион тараққиёт ва миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш. Т.: KONSAUDITINFORM – NASHR. 2011

beruvchi munosabatlardan tashil topadi. Innovatsiya tizimining asosiy elementlari qatorida innovatsiya infratuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, ilmiy salohiyat kabi kichik tizimlarni sanab o'tish mumkin. Ularning har birida tadqiqotlarni moliyalashtirishning asosiy qismi (100%gacha) byudjet manbalaridan (ham federal, ham mintaqaviy byudjetlardan) amalga oshiriladi.

## **2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.**

Rivojlanishning innovatsion tizimida milliy innovatsion tizimni shakllanishi alohida e'tiborni talab qiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi innovatsion iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XXAsrning 70-yillarida kirib keldi.

K.Frimanning fikriga ko'ra, milliy innovatsion tizim – jamiyat tomonidan ichste'mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub'ektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi<sup>33</sup>.

Texnologik izchillik qonuniyatlarini va uning tarixiy mantiqiy ketma-ketligini o'rGANADIGAN evolyutsion iqtisodiy nazariya "texnik iqtisodiy pradigma" va "texnologik traektoriya" tushunchalariga asoslanadi. U makrodarajadagi iqtisodiy o'sish bir tomonidan turli-tumanlikka va noaniqliklarga, ikkinchi tomondan esa mikrodarajada iqtisodiy jarayonlarni bir-biriga uyg'unlashtirish, mutanosiblikni ta'minlash, muvofiqlashtirish va standartlashtirishga bog'liqligini qayd etadi.

Innovatsion rivojlanish kontseptsiyasi Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning tashabussiga ko'ra keng rivojlanmoqda. Mazkur xalqaro institutlarning tashabbusi bilan keyingi yillarda bir qator analitik tadqiqotlar amalga oshirildiki, ularning tadqiqotlari milliy iqtisodiyotni an'anaviy industrial iqtisodiyotdan bilimga, ilmga asoslangan postindustrial iqtisodiyotga tarnsformatsiya jarayonlariga bag'ishlangan.

Global miqyosda kechayotgan tendentsiyalar mamlakat, uning mintaqalari, barcha faoliyat sohalari, birinchi navbatda, fan-texnika va innovatsiyalar sohasini yanada rivojlantirish stsenariylarini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi lozim. Ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni kuchaytirish, yuqori texnologiyali va ko'p ilm talab qiladigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yuqori texnologiyali ukladga o'tish O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga teng huquqli hamkor sifatida kirib borishidan umid qilishga imkon beradigan zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan fan o'sish tendentsiyalari va o'ziga xos qonunlariga, ish usullari, texnika va texnologiyalariga, mehnatni tashkil qilish tizimi va tamoyillariga, maxsus tayyorlangan kadrlarga ega bo'lgan inson faoliyatining mustaqil bir sohasiga aylandi. Bu boshqa ko'pchilik sohalardan farqli ravishda, o'sish chegarasini bilmaydigan, doimiy ravishda rivojlanib boradigan sohadir. Shu bilan birga, fan sohasi uchun ajratiladigan resurslar – mehnat resurslari, moliyaviy resurslar va moddiy resurslar – ma'lum bir chegaraga ega. Aynan resurslar cheklanganligi bu

---

33Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. L.: PrinterPublishers, 1987. 570 p.

resurslardan ilmiy-texnik faoliyatning ustuvor yo'nalishlari va turlarida maqsadli foydalanishga yo'naltirish taktika va strategiyasini ishlab chiqishga majbur qiladi.

Ilmiy faoliyat (ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati)- yangi bilimlar olish va qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat, jumladan:

fundamental ilmiy tadqiqotlar – inson, jamiyat va atrof-muhit tuzilishi, faoliyati va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari haqida yangi bilimlar olishga yo'naltirilgan eksperimental yoki nazariy faoliyat;

amaliy ilmiy tadqiqotlar – asosan amaliy maqsadlarga erishish va muayyan vazifalarni hal qilish uchun yangi bilimlar qo'llashga yo'naltirilgan tadqiqotlar.

Ilmiy-texnik faoliyat (ITF) – texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarni hal qilish, fan, texnika va ishlab chiqarishning umumiyligi (yaxlit) tizim sifatida faoliyat yuritishini ta'minlash uchun yo'naltirilgan faoliyat.

Eksperimental ishlanmalar – ilmiy tadqiqotlar o'tkazish natijasida yoki amaliy tajriba asosida olingan bilimlarga asoslangan hamda inson hayoti va salomatligini asrash, yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, tizimlar yoki usullar yaratish va ularni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatlar.

ITF alohida turlarga taqsimlanadi. Ular o'rtasidagi chegara shartli hisoblanadi va ularni ajratish qiyin bo'ladi. Buning ustiga, ITFda band bo'lganlar uning bir turi bilan tobora kamroq chegaralanmoqda. Masalan, olim va ixtrochi "fan – ishlab chiqarish – iste'mol" butun tsiklida ishtiroy etishi mumkin.

ITF nafaqat natijalari ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik ishlanmalar hisoblangan sohanasi (ITTKI), balki loyiha va konstruktorlik tashkilotlari, ishlab chiqarish apparati, xo'jalik tarmoqlari va sanoatning ushbu yutuqlardan foydalanish qobiliyatini, jumladan, buning uchun zarur bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. ITF toifalarini tavsiflashga bunday yondashuv ITF boshqaruvi uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki unga amal qilgan holda boshqaruv va tashkilot ob'ektlari yangi texnika va texnologiyalar yaratish, ishlab chiqarish va qo'llashning barcha bosqich va shakllarida o'zaro bog'liqlikda bo'lishi lozim. U amalda "fan – ishlab chiqarish – iste'mol" tsikli haqidagi tasavvurdan uзвиy birlikda foydalanish imkonini beradi.

Bunday yondashuv shu jihatdan ham mahsuldor hisoblanadiki, u inson faoliyatining har xil turdag'i va darajadagi ilmiy-texnik komplekslarni shakllantirishni asoslab bergunga qadar ushbu sohasini tashkil qilish shakllarini izohlab va asoslab beradi.

Fan bilim olish, ta'lim, madaniy, ijtimoiy, harbiy va boshqa bir qator funktsiyalarni bajaradi. Biroq tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan iqtisodiy funktsiya asosiy funktsiyalardan biriga aylanmoqda. U boshqa barcha faoliyat sohalarida muayyan mehnat unumdarligini oshirish va tejamkorlikning asosiy omiliga aylanadi. Ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda mehnatni tejash fanning o'zidagi mehnat sarfiga bog'liq. Bu bog'liqlik fan sohasiga jamiyat uchun zarur bo'lgan xarajatlarni shakllantirish ob'ektiv ehtiyojini asoslab beradi. Mehnatni tejash qonuniyligi qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatda mehnat va resurslarning shunchalik katta qismi fanni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim, demak, ilmiy

bilimlar qiymati o'sadi. Mahsulot ishlab chiqarishning ko'p ilm talab qilishi, xo'jalikning ko'p ilm talab qiladigan tarmoqlari paydo bo'lishi va rivojlanishi tendentsiyasi o'sishining nazariy asoslari shundan iborat bo'lib, bu boshqaruvning turli pog'onalarida ilmiy-texnik va innovatsion siyosat ishlab chiqish va amalga oshirda albatta hisobga olinishi zarur.

Fanning bevosita mahsuli – tushunchalar, nazariy konstruktsiyalar, modellar va yangi bilimlar tarkibidagi boshqa axborot bo'lib, mutaxassislar tomonidan bir xilda tushunilish va o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Fanning bevosita mahsuli tovarga aylanmaydi – u yangilik sifatida namoyon bo'ladi.

Fan mahsuli yoki intellektual mahsulot ikki xil yo'l bilan – bozorda va bozordan tashqarida sotish yo'li bilan foydalanishi mumkin. Agarda intellektual faoliyat mahsuloti bozorda sotiladigan bo'lsa, bu holda u yangiliklar toifasidan innovatsiyalar toifasiga o'tadi.

Fanni bozor munosabatlari tizimiga jalb qilish uchun hozirgi paytda oraliq natija – ilmiy-texnik mahsulot – shartnoma shartlariga muvofiq yakunlangan, bozor narxlarida sotiladigan, buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ITTKI natijasi hisobga olinadi. «Yangiliklar kiritish» («innovatsiya») atamasi oxirgi 15-20 yildan beri ilmiy adabiyotlarda va amaliy faoliyatda keng qo'llana boshladi.

Yangilik kiriti (novshestvo) bu – biron-bir faoliyat sohasida uning samaradorligini oshirish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarning rasmiylashtirilgan natijasidir.

Yangilik kiritish – fan va texnika yutuqlaridan bozorda amaliy foydalanish bo'yicha faoliyatning oraliq yakunigina, xolos. Yangilik kiritish intellektual mahsulotning quyidagi turlaridan biri sifatida qayd etilishi va rasmiylashtilishi mumkin: ixtiro, tushuncha, ilmiy yondashuv, yangi tamoyil, standart, tavsiya, uslubiyat, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (texnologiya, boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayoni, tashkiliy, ishlab chiqarish yoki boshqa struktura) hujjatlari, patent, ratsionalizatorlik takliflari, kashfiyotlar, «nou-xau», marketing tadqiqotlari natijalari va h.k. Yangilik kiritish atamasining sinonimi hisoblangan novatsiya tushunchasi ilgari mavjud bo'lмаган биронта yangilikni ifodalaydi.

«Yangilik kiritish» va «novatsiya» tushunchalari bilan «tadqiqot», «ixtiro» va «kashfiyot» tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Ilgari ma'lum bo'lмаган ma'lumotlar olish yoki ilgari ma'lum bo'lмаган tabiat hodisalarini yoki insoniyat muhitini kuzatish jarayoni tadqiqot deb ataladi.

Ixtiro bu – yangi uskuna, mexanizm, vosita, texnologiya, usul va inson tomonidan yaratilgan boshqalarda o'z aksini topadigan tadqiqot natijasidir.

Kashfiyot bu – tadqiqotlarning, ehtimol, qo'shimcha natijasi hisoblanadi. Kashfiyotlar va ixtiolar qoidaga ko'ra, fundamental darajada yuzaga keladi va kamdan-kam hollarda yakka shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ular tasodifan ro'y berishi va foya olish maqsadini ko'zlamasligi ham mumkin.

Yangilik ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy qilinganidan so'ng bozorda iste'mol qilinadigan yangi mahsulotga aylanadi va uni sotishdan iqtisodiy,

ijtimoiy yoki boshqa turdag'i samara olinadi, - u yangi toifaga – innovatsiyalarga aylanadi.

Adabiyotlarda «innovatsiya» atamasiga berilgan ko'plab ta'riflarni topish mumkin. Biroq, tadqiqotchilarning ushbu iqtisodiy toifaga alohida e'tibor ko'rsatishlariga qaramay, ilmiy g'oya haligacha «innovatsiyalar» tushunchasining ham nazariya, ham amaliyot talablariga javob beradigan, shuningdek, ularni amalga oshirishning muayyan sub'ekti – davlat, mintaqo, tarmoq va korxona nuqtai nazaridan to'g'ri bo'ladigan universal ta'rifi ishlab chiqmagan.

«Innovatsiyalar» atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Yozef Shumpeter XX asrning birinchi o'n yilligida kiritgan. O'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli asarida (1911y.) Y. Shumpeter ilk bora rivojlanishda o'zgarishlarning yangi kombinatsiyalari masalalarini (ya'ni innovatsiya masalalarini) ko'rib chiqdi va innovatsion jarayonga to'liq tavsif berdi.

Y. Shumpeter rivojlanishdagi besh xil o'zgarishni ajratib ko'rsatdi:

- 1) yangi texnika, texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta'minotidan foydalanish;
- 2) yangi xususiyatlarga ega bo'lган mahsulot joriy qilish;
- 3) yangi xomashyodan foydalanish;
- 4) ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning moddiy-texnika ta'minotida o'zgarishlar;
- 5) yangi sotuv bozorlarining paydo bo'lishi.

U iqtisodiyotda novator-tadbirkor markaziy figuraga aylanishini isbotlab berdi. Y. Shumpeterga ko'ra, innovatsiya bu – iste'mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o'zgarishlardir.

Innovatsion strategiya bu – jamiyat rivojlanishi yo'nalishiga muvofiq texnologiyalarda ham, texnologiyalarni boshqarishda ham yangiliklar kiritishni tanlash va amalga oshirish tizimlarini o'zgartirish jarayonini belgilab beradigan qoidalar va me'yorlar to'plamidir. Innovatsion strategiyaning eng oliv vazifasi – innovatsion jarayon qatnashchilarining manfaatlari va turli yo'nalishdagi jarayonlarni maksimal darajada uyg'unlashtirish hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish sur'atlarini jadalashtirishni talab etmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamalakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki chuqur, samarali innovatsion strategiyani amal qilishi mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiyot innovatsion shakllanishi eng avvalo iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tarmoqlar hisobiga yuz beradi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xom ashyo eksport qilishini kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag'larining tejalishiga, aholi bandligining oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu omillar o'z navbatida innovatsiya strategiyasini amalga oshirish mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlanishiga olib keladi

### **3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari**

Hozirgi vaqtda respublikaning iqtisodiy siyosati iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga, yuqori samarali ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan.

Mutaxassislariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojdanish yo'liga o'tishi bir qator muammolar bilan bog'liq. Iqtisodiyotning jadal o'sishini ta'minlab beruvchi innovatsion texnologik iqtisodiyotning universal modeli mavjud emas.

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'ektivlik, ishonchlilik, anqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, babs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan ikki qism — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan taxlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalar-ni taxlil etish va umumlashtirish, ke-lib chiqqan farazlarni olingan dalil-lar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamen-tal va amaliy, mikdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga aj-ratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagi-na emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni qal qilishda ham keng qo'llaniladi.

Ilmiy tadqiqot institatlari — fan, texnika, ishlab chiqarish sohalarida ilmiy tadqiqot olib boradigan muassasa. Dastlab 19-asr oxiri 20-asr boshlarida vujudga kelgan. 1888 yil Parijda Paster instituti, 1909 yilda Radiy instituti tashkil etilgan. 20-asrning boshlaridan nazariy masalalar bilan birga texnika, qishloq xo'jaligi, sog'lioni saklash bo'yicha muhim muammolar ustida tadqiqotlar olib boruvchi turli Ilmiy tadqiqot institatlari paydo buldi. 20-asrning o'rtalariga kelib Ilmiy tadqiqot institatlari ko'p mamlakatlarda ilmiy faoliyatni tashkil etishning asosiy shakli bo'lib qoldi. O'zbekistonda asosiy nazariy muammolar ilmiy tadqiqot ishlarining muvofiklashtirish markazi — O'zbeshston Fanlar akademiyasida tadqiq etiladi. Bilimning muayyan sohalarini tadqiq etuvchi va bevosita vazirliklar, davlat qo'mitalariga buysunuvchi tarmoq Ilmiy tadqiqot institatlari ham mavjud. O'zbekistonda birinchi ilmiy tadqiqot muassasasi — Toshkent astronomiya va fizika observatoriysi (hoz. Astronomiya instituti) 1873 yilda tashkil etilgan. 2000 yilda O'zbekistonda 100 dan ortiq Ilmiy tadqiqot institatlari ishladi.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Fan va yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishning ahamiyati.
2. Ilmiy kashfiyotlar hamda tovar va xizmatlarning yangi istiqbolli bozorlarini yaratish zaruriyati.
3. Ta'lim, ilm – fan va ishlab chiqarish tizimini yaratish, uning institutsional sharoitlarni kengaytirish.
4. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish kontseptsiyasining asosiy jihatlari.
5. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.
6. Milliy innovatsion tizim innovatsion iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida.
7. Innovatsion yondoshuvlar asosida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish.

## **V. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-amaliy mashg'ulot.**

**Innovatsion iqtisodiyotning mazmuni, shakllanishi va amal qilish xususiyatlari. Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmuni. Muhokama etiladigan masalalar.**

Reja

1. Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmuni.
2. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot va uning xususiyatlari.
3. Innovatsion jarayon modellari va amal qilish qonuniyatları.

Kalit so'zlar: Innovatsion rivojlanish. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot. Innovatsion jarayon. Innovatsion model. Innovatsion moyillik. Yangilikka intilish. Innovatsion barqarorlik.

#### **2-amaliy mashg'ulot.**

**Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilish va loyihalashtirish. Korxonalarda yangiliklarni ishlab chiqish, tadbiq etish va yaratishni boshqarish.**

Reja

1. Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilishning ahamiyati.
2. Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning samarali tizimi yaratishning zarurligi.
3. Yangiliklarni ishlab chiqish, tadbiq etish va yaratishni boshqarish.
4. Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish manbalari va shakllari.

Tayanch iboralar: Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI). Fan-texnika taraqqiyoti. Intellektual mulk. Intellektual kapital. Intellektual ishlanmalar. Intellektual boylikning huquqiy muhofazasi. Intellektual mulk himoyasi. Intellektual mulknini boshqarish. ITIlarni tijoratlashtirish. Ilmiy kashfiyotlar. Ixtiolar. Litsenziyalash.

#### **3-amaliy mashg'ulot: Innovatsion taraqqiyotning xorij tajribasi.**

Reja

1. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlantirish asoslari.
2. Mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlar.
3. Ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat roli.

Tayanch iboralar: ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni tashkil qilishning ahamiyati, Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning samarali tizimi yaratishning zarurligi, yangiliklarni ishlab chiqish, tadbiq etish va yaratishni boshqarish. Intellektual mulk. Intellektual kapital. Intellektual ishlanmalar. Intellektual boylikning huquqiy muhofazasi. Intellektual mulk himoyasi. Intellektual mulkni boshqarish. ITIlarni tijoratlashtirish. Ilmiy kashfiyotlar. Ixtiolar . Litsenziyalash .

### 1. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyani rivojlantirish asoslari.

Dunyo iqtisodiyotining etakchi davlatlari tajribasi iqtisodiy o'sish – bu to'g'ri tanlangan investitsiya siyosati ekanligini ko'rsatadi. Samarali investitsiya siyosatida asosiy e'tibor mavjud resurslar, investitsiyalar sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlab olish, investitsiyalarni aniqlangan istiqbolli yo'nalishlarga safarbar qilishdir. Bu erda so'z moliyaviy resurslar hajmida emas, balki investitsiyalardan kelgusida eng yuqori mehnat unumдорлиги va ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga asos, shart-sharoit yaratish xususida bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun iqtisodiyotni rivojlantirish uchun fanning turli sohalarini qamrab olgan ilmtalab ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik vazifa sifatida qo'yilmoqda.

Ushbu mamlakatlarda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri ilmiy tadkikot tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) yalpi ichki mahsulotning 3 foizgacha bo'lgan mablag'ning doimiy ajratilishidir. Ushbu tadbir natijasida fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishiga erishishga, mamlakatda g'oyat ko'plab ixtiolar, yangiliklar, g'oyalar vujudga kelishiga tegishli sharoit yaratiladi. Innovatsion taraqqiyotni ta'minlashga kuchli ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil bu inson kapitali va davlatda shakllangan texnik-texnologik uklad hisoblanadi.

Biz innovatsion rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardan Yaponiya, AQSh, Xitoyning shu yo'nalishdagi tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Yaponianing innovatsion rivojlanish tarixi, yangiliklarga investitsiya kiritish usuli – iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishi hisoblanadi. Yaponianing Ikkinci Jahon Vatan urushidan keyingi iqtisodiy ahvoli g'oyat ayanchli bo'lgani tarixdan ma'lum. Yaponiya iqtisodiyotini rivojlantirish uchun esa moliyaviy resurslarni topish imkonи deb hisoblab, dunyo jamoatchiligi va g'arb ekspertlari Yaponiyani abadiy qashshoqlikka mahkum etilgan davlatlar qatoriga kiritib qo'yan edi. Yaponiya 1950 yillardan boshlab texnoparklarni jadal sur'atlar bilan tashkil etish yo'lidan borib, chet eldan juda ko'plab patentlar va litsenziyalar sotib olindi. Yaponiya iqtisodiyotiga g'oyat katta hajmda chet el texnologiyasining kiritilishi qisqa vaqt ichida yangidan zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishga sharoit yaratadi. 1960 yildan boshlab esa Yaponiya xorijiy texnologiyalar bilan bir qatorda o'zining xususiy texnika-texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor bera boshladi. Yaponiyada o'tgan asrning 80-yillarida Tashqi savdo va sanoat vazirligi tomonidan "Texnopolis"


dasturi asosida 14 shaharda 18 ta texnopolis tashkil etildi. “Tsukuba” texnopolisi ularning ichida eng yirigi bo’lib, 28 ming ga maydonni egallagan, 145,0 ming kishi faoliyat ko’rsatadi<sup>34</sup>. Aynan yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish Urushdan keyingi yillarda Yaponiyaning qisqa vaqtida tiklanishiga va jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keldi. Yaponiyaning innovatsion rivojlanishining o’ziga xos jihat shundaki davlatga nisbatan xususiy biznes, xususiy kompaniyalar yangi texnika-texnologiyalarni kashf etib, tanqis bo’lgan moliyaviy resurslarni, investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb eta boshladi. Davlat bilan bir qatorda xususiy biznes tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya siyosatini faollashtirish, mamlakatning moliyaviy resurslarga bo’lgan ehtiyojini qondirish imkonini berdi. Yaponiya hukumati bilan xususiy biznesning g’oyat chuqur o’ylangan, kelishilgan hatti-harakati Yaponiya davlatini iqtisodiy halokatdan qutqarib qoldi. va Yapon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’mindadi. Yaponiyaning innovatsion rivojlanish tajribasi ko’rsatdiki, nafaqat yangiliklar, ixtirolarni kashf etishga kapital, investitsiya, balki kapital uchun ham yangiliklarqilinishi shartligi va ulardan samarali foydalanish zarurligi ham muhim omil ekanligi aniqlandi.

Yaponiya innovatsion rivojlanish tajribasining yana bir qirrasi – bu xususiy biznes vakillarining innovatsion rivojlanishga faol ishtirokidir. Buning zaminida ikkita motiv bo’lib, birinchisi – vatanparvarlik, ikkinchi – innovatsion faoliyatga kiritilgan kapital qaytimi, samaradorligi, an’anaviy faoliyat turlariga nisbatan ancha yuqoriligidir.

Yaponiya iqtisodiyotida eng yuqori markazlashuv – bu fan-texnika taraqqiyotini ta’minalash sohasida kuzatiladi. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi davlat nomidan yagona markazdan turib boshqarish vazifasini bajaradi. Bunday boshqaruva tizimi AQShda va G’arbiy Evropa davlatlarida yo’q bo’lib, undan ko’zlangan asosiy maqsad – strategik, uzoq muddatli, istiqbolli davlat dasturlarini o’zida mujassam etgan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, rivojlantirish, realizatsiya qilish hisoblanadi. Yaponiyada ITTKI larning markazlashuvi va ularni tartibga solish uchun fanni moliyalashtirish vazirliklar tomonidan amalga oshiriladi va doimiy amal qiluvchi yirik, milliy laboratoriylar amal qiladi. Shuningdek davlatdan yirik buyurtmalar oladigan markazlashgan yirik korporatsiyalarning ilmiy majmualarini rivojlantirish xalqaro institutlar, dasturlar va loyihalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

---

34 <http://www.feedcenter.org>. Сайти материалларидан олинган.



### 1.5-chizma. Yaponiya innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari<sup>35</sup>

Chizmadan ko'rinaridiki, Yaponianing innovatsion rivojlanish yo'nalishlari g'oyat keng qamrovli bo'lib, uni bir o'ziga xos jihatni iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda texnik-texnologik yangilashda tabiat va jamiyat uyg'unligi, turli aholi qatlamlarining manfaatlari ham inobatga olinishidir. Yaponiya xususiy biznes vakillariga davlat tomonidan berilayotgan "soliq krediti" imtiyozi innovatsion rivojlanishni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Yaponiyada xususiy biznes tomonidan samarali, lekin yuqori xavf-xatarli loyihalarning amalga oshirilishida davlat loyiha ishtirokchisi, biznes-partnyor sifatida ma'lum riskni o'ziga oladi va xususiy biznesni qo'llab quvvatlaydi.

Yaponiya innovatsion siyosatini boshqaruvin tizimining yana bir o'ziga xos tomoni innovatsion rivojlanishni ta'minlashda gorizontal aloqalarning kuchliligi, yirik loyihalar muhokamasida davlat, xususiy tashkilotlarining faol ishtirok etishi; fan, texnika, texnologiya, boshqaruuv va boshqa sohalarda, davlat boshqaruvinining barcha dastaklarida innovatsiyalardan samarali foydalanish o'rtasidagi integratsiyaning

<sup>35</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чикилган

mavjudligidir. Innovatsion jarayonlarni monitoring qilish va prognozlash maqsadida “Aqliy” tadqiqot markazlari keng rivojlanganligi.

Bugungi kunda Yaponiyada 23 ta erkin import zonası, 19 ta texnopolislar, 300 taga yaqin davlat va xususiy ilmiy-texnik markazlar ishlab turibdi. Yaponianing innovatsion rivojini rejalashtirish AQShnikidan eng katta farqi – bu ITTKIni rejalashtirishning samaradorligini aniqlash mexanizmining mavjudligidir.

Yaponiyadan innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtirish uchun ITTKI sub'ektlariga soliq, amortizatsiya va boshqa iqtisodiy imtiyozlar tizimini qo'llash amaliyoti keng qo'llanilgan. Masalan, ITTKI sub'ektlari faoliyati natijasida olinadigan foydadan soliq olmaslik, o'sha soliq bazasini ularning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlashga yo'naltirish, import operatsiyalaridan imtiyozli boj-ta'rif siyosatini qo'llash amaliyoti keng tarqalgan. Masalan, Yaponiyada bugungi kunda ITTKIga ajratilayotgan mablag'lar AQShga nisbatan -11,0 marta, Germaniyaga nisbatan -8,4 marta kamdir. Bu nafaqat davlatning byudjet mablag'larini tejashi, balki bu xususiy biznesning ishlab chiqarishga “nou-xau”larni tatbiq etishdagi roli va manfaatdorligi ko'rsatkichi hamdir.

Xitoy Xalq Respublikasining innovatsion rivojlanish yo'li ham o'ziga xosdir. Xitoy Xalq Respublikasining XX-asr oxiri XXI-asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, aholining jadal sur'atlar bilan o'sishi, energiya resurslarning etishmasligi, hududlarning notekis rivojlanganligi, ekologiyaning yomonlashuvi va inflyatsiyaning g'oyat yuqoriligi kabi dolzarb muammolar bilan tavsiflanar edi. Xitoy hukumati mazkur muammolarning echimini investitsiyalar orqali hal etish yo'lini tanladi. Xitoyning innovatsion rivojlanishining o'ziga xos tamoyili chet eldan investitsiyalarni jalg qilish va tayyor texnologiyalarni xarid qilish, ishlab chiqarishga tatbiq etishdan o'zining xususiy innovatsiyalarini yaratish va yuqori texnologiyali brendlarni vujudga keltirishga ustivorlik bergenligida ko'rindi. Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar 1978 yilda boshlanib, davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun g'oyat katta imkoniyatlar yaratdi. Xitoy ham Yaponiya kabi o'zining innovatsion rivojlanishining chet eldan patentlar, litsenziyalar xarididan boshlab zamонавиy sanoat tarmog'ini shakllantirishga muvaffaq bo'ldi.

Xitoyning innovatsion rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin bo'lib, 1-bosqichi 1978-1982 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) ga sarmoyalarni jalg etishning huquqiy-shartnomaviy, tashkiliy asoslari vujudga keltirildi. Bu jarayonda soliqqa tortish, texnologiyalarni qabul qilish va tarqatish, mehnat munosabatlari, valyuta va bojxona masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari to'plami qabul qilindi. Soliqqa tortishda misli ko'rilmagan imtiyozlar berildi, mamlakatda korxona foydasidan olinadigan soliq stavkasi – 33 foiz bo'lgan holatda, erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda bu ko'rsatkich – 15 foizni tashkil etgan edi. Innovatsion rivojlanishning 2-bosqichi 1983-1989 yillarni qamrab olib, shu davrda Xitoya chet el kapitalini nafaqat erkin iqtisodiy zonalarga, balki davlatning boshqa hududlariga ham kiritish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yana kuchaytirish, kengaytirish, qonunchilikni yana takomillashtirish masalalari muvaffaqiyatli hal etildi. 2 - bosqichda erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotining 50 foizi eksport qilindi, bu zonalardagi

infratuzilmalarni barpo etishning 80 foiz xarajatini Xitoy hukumati o'zi zimmasiga oldi. Xitoyda 1990 yildan innovatsion rivojlanishning 3-bosqichi boshlanib, bugungi kunda mamlakatda mayjud bo'lgan texnik-texnologik tartibning poydevoriga aynan shu bosqichda asos solindi<sup>36</sup>.

Xitoyning sohilbo'yi hududlarini rivojlantirish strategiyasida sanoat va texnologik rivojlanishni ustivor yo'nalish sifatida belgilandi. Xitoy iqtisodiyotini innovatsion yo'nalishga o'tkazishning dastlabki qadamlari sifatida mamlakatning chekka, port shaharlarida EIZ tashkil etildi. Amalga oshirilgan ushbu tadbir natijasida Xitoyga sarmoya kiritish avj oldi va bu holat Evropa, AQSh, Yaponiyadan dastlab Xitoyga chet eldan ko'p qo'l mehnati talab qiluvchi, keyinchalik esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Xitoy hududida joylashgan EIZlar dunyoda eng katta bo'lib hisoblanadi. Ularning dunyodagi boshqa erkin iqtisodiy zonalardan farqi ularni ko'p tarmoqli ekanligi, sanoat rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirilganligidir. Xitoyda erkin iqtisodiy zonalarning rivojlanishi bilan ularning tabaqlashuvi ham sodir bo'ldi. Xitoy bugungi kunda yuqorida qayd etilgan tadbirlar natijasida dunyoning eng yirik eksportyor davlatiga aylandi. Bugungi kunda Xitoyda turli darajada 120 ta yangi va yuqori texnologiyani o'zlashtiruv zonalarini, shundan 53 tasi davlat ahamiyatiga molik zonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 137 ta yangi korxonalarni tashkil etuvchi servis-markazlar ishlab turibdi<sup>37</sup>. Xitoyning innovatsion rivojlashining yana bir ustivor tamoyillaridan biri strategik rejorashtirish, prognozlash, dasturlash kabi iqtisodiy dastaklardan yuqori samara bilan foydalanishdir. Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning "Prognоз-2050" strategik dasturi ishlab chiqilgan va iqtisodiy hayotga muvaffaqiyat bilan tatbiq etilmoqda.

AQShda innovatsion faoliyatni tashkil etishda davlatning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar Yaponiyada innovatsion faoliyatni tashkil etishda xususiy biznes ustivor va uning salmog'i katta bo'lsa, AQShda esa innovatsion faoliyat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, boshqariladi va muvofiqlashtiriladi (1 - jadval).

1-jadval.

AQShda davlat tomonidan innovatsion faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari<sup>38</sup>

T/r	Davlat organlari nomlari	Vazifikasi
1	Amerika ilmiy jamg'armasi	Mamlakatda olib borilayotgan fundamental tadqiqotlarni boshqaradi va muvofiqlashtiradi.
2	Amerika ilmiy kengashi	Sanoat sohasidagi ilmiy tadqiqotlar olib boradi va ilmiy-o'quv jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi.
	NASA	Agrokosmik tadqiqotlarni olib boradi

36 <http://catalog.fmb.ru/china/10.shtml>. сайтидан олинган материаллар.

37 Экономическое обозрение №12(134) 2010, стр.32-33.

38 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

T/r	Davlat organlari nomlari	Vazifasi
4	Milliy standartlar byurosni	AQShda ishlab chiqarilgan, mamlakatga kiritilayotgan tovarlar, xizmatlarni standartlash ishlarini tashkil etadi va boshqaradi.
5	Mudofaa vazirligi	Harbiy mudofaa sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.
6	Sanoat tadqiqotlari Milliy markazi	Sanoat bilan boshqa tarmoqlar, sohalar integratsiyasini ta'minlovchi ilmiy-tadqiqotlarni olib boradi.
7	Milliy fanlar akademiyasi	Mamlakat miqyosida olib borilayotgan fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.
8	Milliy texnika akademiyasi	Amerikani modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilashga oid tadqiqotlarni tashkil etadi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi.
9	Amerika rivojlanishiga ko'maklashuvchi assotsiatsiya fanlari	Barcha fanlarni rivojlantirish, takomillashtirish, boyitishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqaradi va amalga oshiradi.

Jadvalda keltirilgan 9 ta tashkilotdan 1-5 qatorda joylashganlari to'liq byudjetdan, qolgan 4 ta esa aralash moliyalashtiriladi, ya'ni 50 foizi xususiy biznes tomonidan, 46 foizi byudjetdan, qolgani esa boshqa manbalardan moliyalashtiriladi. AQSh innovatsion rivojlanishining o'ziga xos jihat – bu davlat ahamiyatiga molik yirik ilmiy loyihalar davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi. Mazkur loyihalarni ishlab chiqish, realizatsiya qilish vechur jamg'armalari va tadqiqot markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion rivojlanishni ta'minlashning muhim shart-sharoitlaridan biri – tegishli infrastruktura yaratishdir va bu muammo ham davlat tomonidan hal etiladi.

AQShda yangiliklar va ixtirolarni tarqatish, ularni tushuntirish, reklama qilish markazlari keng tashkil etilgan. Davlat bir tomonidan investitsiyalarning yaratuvchisi sifatida ishtirok etadi va boshqa tomonidan esa, ularning iste'molchisi ham o'zi hisoblanadi. Investitsiyalar uchun mas'ul davlat organlari mamlakatda va chet ellardagi innovatsion jarayonlarni kuzatib boradi eng ilg'or texnologiyalarni topish, ularni ekspertiza qilish, keng tarqatish kabi amaliy ishlarni bajaradi va prognozlash ishlarini amalga oshiradi. AQShda innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliq tizimi imtiyozlaridan samarali foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan. AQShda intelektual mulk sub'ektlari va ob'ektlarini soliqqa tortishda bir qator imtiyozlar qo'llaniladi. Masalan, AQShda intelektual mulk ob'ektlarini (IMO) soliqqa tortishda qo'llaniladigan soliq – bu daromad solig'idir. Agar intelektual mulk ob'ektlarni oldi-sotdi operatsiyalari jarayonida barcha qilingan harajatlar soliq bazasidan chiqarib tashlanadi.

Amerika soliq kodeksida intelektual mulk ob'ektlarni tashkil etishda ularni tashkil etishga qilingan va to'lab berilgan harajatlar, odatiy va zaruriy harajatlar soliq bazasidan chiqarib tashlanadi. AQShda IMOni sotishda ham sotuvchi-soliq to'lovchiga

bir qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Masalan, agar litsenziya sotish orqali olingan daromaddan birlamchi soliq bazasidan olingan stavkadan soliq olinadi, ustav kapitalidan emas .

Dunyoning innovatsion rivojlangan davlatlari (AQSh, Yaponiya) va jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan (Xitoy) davlatlarida yuritilayotgan samarali soliq va boshqa imtiyozlar tizimi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

mualliflik huquqi va intelektual mulkning dahlsizligini iqtisodiy-ma'naviy jihatdan ta'minlash;

ITTKIdan olinayotgan foydadan olinadigan soliqning bir qismi yoki to'liq hajmini o'sha sohaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyoriga qoldirish;

yirik, davlat ahamiyatiga molik loyihalarni realizatsiya qilayotgan loyiha ishtirokchilariga "soliq ta'tili" tizimini qo'llash;

innovatsion faoliyat ishtirokchilarining olayotgan dividentlari, foydasini imtiyozli soliqqa tortish;

innovatsion faoliyat sub'ektlarining ehtiyojlari uchun qilinadigan tovar-moddiy boyliklarni xarid qilishda imtiyozli soliq, boj-tarif tizimini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **2. Mamlakatning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi indikatorlar.**

Industrial rivojlangan davlatlarda muomaladagi pul massasi bilan tovarlar, xizmatlar qiymatining massasi o'rtaqidagi nisbatning keskin buzilishi sodir bo'ldi va bunday noxush holatlar dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan texnologik, energetik, ekologik muammolarni yanada murakkablashtirib ularni dolzarb masalalarga aylantirmoqda. Mazkur muammolar esa o'z navbatida jahon xo'jaligida globallashuv tendentsiyalarini kuchaytirib, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tamoyillari, shakllari, yo'nalishlarini o'zgartirmoqda va pirovardida bu holatlar milliy xo'jaliklarga salbiy ta'sir etmoqda.

Ma'lumki bugungi kunda industrial rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish omillari oldingidek kapital, mehnat va ishlab chiqarish vositalarigina bo'lib qolmasdan balki iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida yuqori sifatli sanoat mahsulotlari, raqobatbardosh intelektual mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlovchi bilimlar, g'oyalar va yangi texnologiyalar yuzaga chiqmoqda.

Dunyo iqtisodiyotida oxirgi yillarda sodir bo'lган va davom etayotgan inqirozli jarayonlar milliy iqtisodiyotlarda ham har tomonlama puxta o'ylangan iqtisodiy siyosat yuritishni taqoza etmoqda. Darhaqiqat, jahon iqtisodiyotining barqaror o'sishi uchta global omil, ya'ni ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasi, innovatsion faoliyat olib boruvchi institutlar va sub'ektning samarali faoliyati, mamlakatda olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosat va uning natijasida shakllantirilgan mo'tadil investitsiya muhiti hal etuvchi omil bo'lib qolmoqda. Agar yuqorida keltirilgan omillar misolida mamlakatimizda innovatsion rivojlanish holatini tahlil qilinadigan bo'lsa quyidagilarni aytish joiz bo'ladi. Sanoati yuksak rivojlangan davlatlar (AQSH, Angliya, Frantsiya) tajribasi, jo'shqin rivojlanish pallasini boshidan kechirayotgan davlatlar (Malayziya, Singapur, J.Koreya, Tailand)da olib borilayotgan islohotlar

tajribasidan ko'rindaniki zamonaviy iqtisodiyot innovatsion-intelektual tavsifga ega bo'lib bormoqda. Ma'lumki, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi samarali investitsiya va innovatsion siyosati, ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlik tamoyillari asosida ta'minlanmoqda.

Qaysi iqtisodiy makonda tadbirkorlikka keng yo'l, takomillashgan raqobat mexanizmi, mo'tadil investitsiya muhiti va oqilona investitsiya siyosati yuritsa o'sha hududda iqtisodiy rivojlanish innovatsion tavsifga ega bo'ladi, iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanadi va qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan qoloq davlatlarning industrial rivojlangan davlatga aylanishiga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan xalqaro iqtisodiyotdagi yangi tendentsiyalar, iqtisodiy o'sish, rivojlanish omillarining o'zgarishi o'z navbatida innovatsion iqtisodiyotga o'tishni hayotiy zaruratiga aylantirmoqda. Shuningdek, bu jarayonda bir qator omillar, shart-sharoitlar innovatsion iqtisodiyotga o'tishni taqoza etmoqda (2.1 - jadval).

Jadvaldan ko'rindaniki, innovatsion iqtisodiyotga o'tish zaruratinini iqtisodiyotda davriylik tavsifiga ega bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning vaqt-vaqt bilan sodir bo'lib turishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mustaqilligini va raqobatbardoshligini ta'minlash, tabiiy, iqtisodiy va mineral resurslarning cheklanganligi, aholi sonining uzlusiz ravishda oshib borishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlari, sohalaridagi asosiy fondlarning eskirish darajasining yuqoriligi kabi omillar kiradi. Ushbu omillarning har biri muayyan funktsional vazifani bajaradi. Mazkur omillar har bir milliy davlatni innovatsion rivojlanish yo'lini tanlashga majbur etadigan va mamlakatda esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan omillar hisoblanadi.

## 2.1. - jadval.

Innovatsion rivojlanishga o'tish zaruriyatini belgilovchi omillar<sup>39</sup>


Omillar	Funktsional vazifasi
Iqtisodiyotda davriylik tavsifiga ega bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning vaqt-vaqt bilan sodir bo'lib turishi	Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tangliklarning kelib chiqishi va xo'jalik yurituvchi inqirozlarning faoliyatiga ixtiolar va yangi yondashuvlarni qo'llashning dolzarb masalaga aylanishi.
Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning mustaqilligi va raqobatbardoshligini raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ta'minlash	Bozor ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarishni texnik-texnologik yangilash, modernizatsiya qilishga o'tilishi.
Tabiiy, iqtisodiy va mineral resurslarning cheklanganligi	Resurslardan tejamkorlik bilan samarali foydalanish va shu maqsadda zamonaviy texnologiyalar, standartlar ishlab chiqilishi

39 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

	hamda ishlab chiqarishning alternativ usullariga o'tishi.
Aholi sonining uzluksiz ravishda oshib borishi	Dunyo, mamlakatlar aholisining o'sishi, ehtiyojlarning tabiiy va o'z-o'zidan uzluksiz oshib borish tendentsiyasining vujudga kelishi.
Milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi asosiy fondlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun asosiy eskirish darajasining yuqoriligi	Davlat va milliy iqtisodiyotning fondlarni yangilash muddatlarini qisqartirish orqali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni innovatsion ishlab chiqarishga o'tkazish nafaqat fan-texnika taraqqiyotiga, sanoatda yangi tarmoqlarning rivojlanishiga balki iqtisodiyotning barcha soha, tarmoqlarini yangilash, modernizatsiya qilish, ularga yangi texnologiyalarni kiritish hamda jamiyat hayotining ma'naviy, ma'rifiy tomonlarini, boshqaruv tizimini, uning usullari, yo'llarini takomillashtirish hamda ijtimoiy ongni yuksaltirishni ham shart qilib qo'ymoqda. 2008 yil AQSh iqtisodiyotining ipoteka bozoridan boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz dunyo mamlakatlarining innovatsion faollikni jadallashtirishini hayotiy zaruriyatga aylantirdi. Ma'lumki, har bir inqirozdan chiqishning yangi usullari innovatsiyalarga asoslangan yangi texnik-texnologik yo'nalishlarni vujudga keltiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, nazariy jihatdan inqirozdan chiqish yoki uni inqirozdan saqlanishning asosiy yo'llaridan biri bu – iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga o'tishdir.

Innovatsion iqtisodiyotning asosiy belgilari, ya'ni mezonlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi (1-chizma).



## 2.1.- chizma. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish mezonlari<sup>40</sup>

Chizmada keltirilgan mezonlarga ko'ra O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalasining qay holatda ekanligiga baho berish mumkin bo'ladi. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanishini aks ettiruvchi mezonlarning asosiyatlari sanoatning rivojlanganlik darajasi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, YaIMda ITTKIga qilingan xarajatlar salmog'i, YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi, mamlakatda qilingan va ro'yxatga olingan ixtiolar, kashfiyotlar, patentlar soni va ularning tijoratlashuv darajasi hisoblanadi.

Ma'lumki, innovatsion rivojlanishning asosini sanoat tarmog'i va uning turli yo'nalishlari tashkil etadi. Shu naqtai nazardan O'zbekistonning innovatsion rivojlanishining hozirgi holati, istiqboli haqida so'z yuritishni sanoat tarmog'inining tahvilidan boshlash maqsadiga muvofiqdir.

O'zbekiston sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi va yalpi ichki mahsulotda sanoat mahsulotining ulushi –55 foizni tashkil etadi (2010 yil yakuniga

<sup>40</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

ko'ra).<sup>41</sup> Mamlakatimizda sanoatning mashinasozlik, engil sanoat, paxta tozalash va qayta ishslash, gaz, rangli metallurgiya, elektrotexnika, radioelektronika va priborsozlik sohalari rivojlangan. Keyingi yillarda sanoatning nefti-gaz, nefti-kimyo, energetika, metallurgiya va avtomobilsozlik sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sanoat tarmog'ining 100 ortiq yo'naliishlarida 2200 dan ortiq kontsern, ishlab chiqarish birlashmalar, korxonalar tomonidan engil va yuk avtomobili, traktorlar, samolyotlar, paxta terish mashinalari, kabel, tekstil stanoklari, lift, kran, turli transformatorlar, kompressor stantsiyalari, mineral o'g'itlar va x.k. kabi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ma'lumki 1991 yilgacha respublikamizga -6,0 mln. tonnagacha neft mahsulotlari keltirilar edi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning neft-gaz tarmog'iga shu sohadagi dunyoning etakchi "Kellog" (AQSh), "Nisho Ivan" (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlikda Ko'kdumaloq neft kondensat koni rekonstruktsiya qilindi. 1997 yillar Buxoro nefti qayta ishslash zavodi "Tennip"(Frantsiya), "Marubeni"(Yaponiya) kompaniyalari yordamida modernizatsiya qilindi va ishga tushirildi. O'rta Osiyoda eng yirik polietilen va etilen "Shurtan gaz-kimyo kompleksi", "AAB Lamus Global"(AQSh), "Mitsun", "Nisho Ivan"(Yaponiya) xalqaro konsortsiumi tomonidan qurilib, ishga tushirildi. Sanoatning neft-gaz tarmog'iga kiritilgan chet el investitsiyasi ishtirokida shu sohada dunyoda yaratilgan eng zamonaviy so'nggi texnika va texnologiyalar joriy etildi. Mazkur sohaga innovatsion yondashuv tarixan qisqa davr ichida O'zbekistonning yoqilg'i-energetika mustaqilligini ta'minlashga moddiy asos yaratdi. Mustaqillik yillarida engil sanoatda 100dan ortiq chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalar tashkil etildi. "Kateks", "Elteks" qo'shma korxonasi, (Qoraqalpog'iston Respublikasi), "Kabul LTD" korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston engil sanoatida Germaniya, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya, AQSh, Hindistonlik investorlar tomonidan dunyo engil sanoatining etakchi kompaniyalari, ya'ni "Tsenzer", "Shlafxorst" (Germaniya), "Riter"(Shveytsariya), "Tayoda", "Murata" (Yaponiya), "Savio", "Orizio" (Italiya) tomonidan tarmoqqa yuqori texnologiyali, zamonaviy ishlab chiqarish liniyalari kiritildi va bugungi kunda muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. O'zbekistonda engil va to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning 2010-2015 yillarga mo'ljallangan Dasturi doirasida tarmoqda -1,3 mlrd. AQSh dollarari hajmida chet el investitsiyasini kiritish, qiymati -1,6 mlrd. dollarini tashkil etadigan 100 dan ortiq loyihami amalga oshirish, eksportni esa 2,0 mlrd. AQSh dollariga etkazish ko'zda tutilgan.

Elektrotexnika tarmog'ida ham "Algoritm", OAJ "Foton", OAJ "Zenit", OAJ "Sino" OAJ.ni modernizatsiya qilishga, ular tomonidan maishiy elektr texnikalari, jihozlarini ishlab chiqarishga -83,5 mln. AQSh dollarari miqdorida investitsiya kiritish rejallashtirilmoqda.<sup>42</sup>

---

42 Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидағи (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари хамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлар. "ЎЗБЕКИСТОН"НМИУ, 2011-236.

### **3. Ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat roli.**

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim tamoyillaridan biri davlatning bosh islohotchilik roli va undan samarali foydalanishdir. Haqiqat ham Osiyo qit'asida yashovchi xalqlarning mentaliteti, urf-odatlari, ishlab chiqarish usullarida davlatga hamisha alohida vazifa yuklatilgan va tarixan bu o'zini oqlagan. Xususan, O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, respublikaning geografik joylashuvi, demografik omillar, aholi tarkibida yosh bolalar hissasining boshqa davlatlarga nisbatan ko'pligi va aholi o'sish sur'atlarining yuqoriligi davlatning rolini, ayniqsa iqtisodiyotni samarali makroiqtisodiy siyosat yuritish orqali tartibga solish masalalarida yanada dolzarb qilib qo'yadi. Bizningcha tabiatda zahiralari kamayib tugab borayotgan energiya manbalarini energiyaning alternativ manbalariga o'tkazish, iqtisodiyotda faqat xom ashyo, birlamchi ishlov berilgan mahsulotlar yoki yarim fabrikat ishlab chiqarish modelidan yuqori texnologiyalar asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan innovatsion modelga o'tkazish bugungi kunning eng dolzarb masalalari hisoblanadi. Chunki, milliy iqtisodiyotda mustaqillik yillarida tarixan qisqa davr (20 yil) ichida misli ko'rilmagan, asrga tatiguvlik yutuqlar va natijalarga erishdik.

Mamlakat miqyosida makroiqtisodiy mutanosiblik va muvozanatlikka erishish, barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi, tashqi savdo faoliyatining jadal sur'atlari bilan rivojlanishi, xususan eksport salohiyatimizning keskin oshganligi shular jumlasidandir. Lekin, qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda ayrim va o'z echimini kutayotgan jiddiy muammolar ham saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni umumlashtirib tavsiflaydigan bo'lsak –bu O'zbekiston iqtisodiyotida ko'proq ekstensiv o'sish ustivor bo'lgan an'naviy ishlab chiqarish, mavjud texnik texnologik ukladdan iqtisodiy o'sishni intensiv omillar hisobiga ta'minlaydigan, zamonaviy, modernizatsiyalashgan texnik-texnologik ukladini qaror toptirish negizida innovatsion ishlab chiqarishga o'tishdir. Innovatsion ishlab chiqarish modeli –bu milliy iqtisodiyotning barcha salohiyatidan samarali foydalanish, YaIM tarkibida tayyor mahsulotlar hissasini oshirish, iqtisodiyot, mamlakat raqobatbardoshligi ta'minlashdir. Innovatsion ishlab chiqarish aholi turmush darajasini keskin yuksaltirishning asosiy yo'li va texnik-texnologik asosi hisoblanadi.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki bizning iqtisodiyot sohasida erishgan yutuqlarimiz zamirida katta xarajatlar, qo'shimcha mablag'larni sarflash, iqtisodiyotning real sektor tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida tayyor mahsulotlar kam bo'lib, asosan tabiiy xom ashyo ishlab chiqarish va ularni eksport qilish ko'zga tashlanadi. Innovatsion usulda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi YaIM tarkibida g'oyat kam foizlarni tashkil etishi, iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdarligi ko'rsatkichlarning pastligi ham hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytmoqchimizki, respublikada yuritilayotgan makroiqtisodiy siyosatning ayrim jihatlarini zamon ruhiga moslashtirish, ya'ni yanada takomillashtirishni zarur deb, hisoblaymiz. Iqtisodiy amaliyotdan ma'lumki makroiqtisodiy siyosatning investitsiyalar, soliqlar va soliqqa

tortish, boj-tarif, moliya-kredit, yo'nalishlarini yanada takomillashtirish hamda ularning ta'sirchanligini oshirish barqaror iqtisodiy o'sishni innovatsion yo'llar bilan ta'minlashga tegishli huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asos yaratadi deb o'ylaymiz.

Davlatning investitsiya siyosati – iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, texnik texnologik yangilash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy unsurlaridan biri kapital hisoblanadi va uning iste'mol va jamg'arishga sarflanadigan qismlari o'rtaсидиgi nisbat muayyan tarzda oqilona bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari investitsiyalar manbai va hajmi ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotda asosiy fondlarni yangilab borish, tarmoq va sohalarni modernizatsiya qilish, o'sish sur'atlarini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda innovatsion rivojlanishga o'tish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va qabul qilingan chora-tadbirlar ko'zga ko'rinarli bo'lsada, talab darajasidan ancha yiroq. Chunki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirishning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlarni innovatsion faoliyatga o'tkazish, soliqqa tortish, boj-ta'rif, eksport-import va konvertatsiya masalalarida rag'batlantirishning yagona tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Qilona soliqqa tortish, soliq imtiyozlarini qo'llash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini, xususan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, texnik-texnologik yangilash va pirovardida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun tabaqalashgan soliq imtiyozlari tizimini yaratish bugungi kunda dolzarb muammodir.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazishda quyidagi muammolar mavjud:

innovatsion iqtisodiyotga o'tishda zarur bo'lgan investitsiyalarning mamlakat hududida notejis taqsimlanganligi va infratuzilmaning tegishli darajada yaratilmaganligi;

mamlakatda fan-texnika taraqqiyoti bilan ishlab chiqarish aloqadorligining zaifligi, yaratilgan ixtiolar, yangiliklar, kashfiyotlarning ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etishning mukammal mexanizmining yo'qligi;

respublikada innovatsion rivojlantirishni ta'minlashning strategik rejasi, dasturining to'liq yaratilmaganligi va bu jarayonda istiqbolli rejalashtirish, prognozlash dastaklaridan samarali foydalanilmayotganligi;

iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligi mezonlarining ishlab chiqilmaganligi va investitsiyalarning moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan kamroq kiritilmayotganligi.

Dissertatsiya ishida mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash va bu jarayonda soliq siyosati, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish masalalarini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rivojlangan davlatlardan innovatsion mahsulotning rasmiy-huquqiy shakli bo'lgan patent, litsenziyalarning kam xarid qilinishi va oqibatda zamonaviy texnika-texnologiyalarning milliy iqtisodiyotga sust joriy etilishi.

2. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning moddiy asosi hisoblangan texnopolislar, texnoparklar, biznes inkubatorlar va ilmiy-texnik markazlarning tashkil etilmaganligi innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi katta muammolardan biri hisoblanadi va ularni zudlik bilan tashkil etish choralarini ko'rish zarur.

3. Erkin iqtisodiy zonalar(EIZ) – innovatsion iqtisodiyotning moddiy, texnik-texnologik asosini yaratuvchi manbalar hisoblanadi. Ularning tashkil etishning huquqiy-tashkiliy masalalarini hal etish va sonini ko'paytirishning chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish lozim.

#### **4-amaliy mashg'ulot.**

#### **O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi va rivojlanishi.**

Reja:

1. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.
2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.
3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

Tayanch iboralar: Milliy innovatsion tizim. Innovatsiyaga asoslangan iqtisod. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

#### **1.O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.**

Milliy innovatsion tizimi shakllantirish kontseptsiyasi o'tgan asrning 80 yillar boshidan rivojlana boshladi. Bunda "milliy" so'zi tavsifi aynan "davlat" innovatsiya tizimi degan mazmunni anglatadi.

Turli mamlakatlarning milliy innovatsion tizimi bir biridan farq qiladi. Shu kungacha milliy innovatsion tizimining yagona ta'rifi mavjud emas. Shuningdek, turli mamlaatlar milliy innovatsion tizimi oldiga turli maqsadlar qo'yilishi mumkin. Frantsiyada milliy innovatsion tizimining asosiy vazifasi qo'shimcha ish o'rnlari tashkil qilish, Germaniyada ilg'or texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat, deb hisoblanadi. Bunda evropalik ekspertlarning bergen baholariga ko'ra, har ikki milliy innovatsion tizimning umumiy samaradorligi deyarli bir xil.

Innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga na davlat turi, na siyosiy tadbirlar ta'sir ko'rsata oladi. Innovatsiya faoliyati federal davlatlarda ham (AQSh, Germaniya), unitar davlatlarda ham (Frantsiya), konstitutsion monarxiya davlatlarida ham (Buyuk Britaniya, Gollandiya, Ispaniya), shuningdek kommunistik tartibga ega davlatlarda (Xitoy) ham muvaffaqiyatli rivojlanaveradi. Bunda umumiylilik shundaki, xorijda innoavion jarayolarning rivojlanishi barqaror siyosiy vaziyat va barqaror faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot sharoitida yuz beradi.

Milliy innovatsion tizimi kontseptsiyasi Evropa ittifoqining bir qator a'zo mamlakatlarida, shuningdek, AQSh va Yaponiyada keng rivojlangan. Milliy innovatsion tizimi innovatsion faoliyat sub'ektlari majmuidan, ular o'rtasidagi bilimlarning yuzaga kelishi, tarqalishi va ulardan foydalanish jarayonlarini ta'minlab beruvchi munosabatlardan tashil topadi. Innovatsiya tizimining asosiy elementlari

qatorida innovatsiya infratuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, ilmiy salohiyat kabi kichik tizimlarni sanab o'tish mumkin. Ularning har birida tadqiqotlarni moliyalashtirishning asosiy qismi (100%gacha) byudjet manbalaridan (ham federal, ham mintaqaviy byudjetlardan) amalga oshiriladi.

## **2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.**

Rivojlanishning innovatsion tizimida milliy innovatsion tizimni shakllanishi alohida e'tiborni talab qiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi innovatsion iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XXasrning 70-yillarida kirib keldi.

K.Frimanning fikriga ko'ra, milliy innovatsion tizim – jamiyat tomonidan ichste'mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub'ektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi<sup>43</sup>.

Texnologik izchillik qonuniyatlarini va uning tarixiy mantiqiy ketma-ketligini o'r ganadigan evolyutsion iqtisodiy nazariya "texnik iqtisodiy pradigma" va "texnologik traektoriya" tushunchalariga asoslanadi. U makrodarajadagi iqtisodiy o'sish bir tomonidan turli-tumanlikka va noaniqliklarga, ikkinchi tomondan esa mikrodarajada iqtisodiy jarayonlarni bir-biriga uyg'unlashtirish, mutanosiblikni ta'minlash, muvofiqlashtirish va standartlashtirishga bog'liqligini qayd etadi.

Innovatsion rivojlanish kontseptsiyasi Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning tashabussiga ko'ra keng rivojlanmoqda. Mazkur xalqaro institutlarning tashabbusi bilan keyingi yillarda bir qator analitik tadqiqotlar amalga oshirildiki, ularning tadqiqotlari milliy iqtisodiyotni an'anaviy industrial iqtisodiyotdan bilimga, ilmga asoslangan postindustrial iqtisodiyotga tarnsformatsiya jarayonlariga bag'ishlangan.

Global miqyosda kechayotgan tendentsiyalar mamlakat, uning mintaqalari, barcha faoliyat sohalari, birinchi navbatda, fan-texnika va innovatsiyalar sohasini yanada rivojlantirish stsenariylarini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi lozim. Ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni kuchaytirish, yuqori texnologiyali va ko'p ilm talab qiladigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yuqori texnologiyali ukladga o'tish O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga teng huquqli hamkor sifatida kirib borishidan umid qilishga imkon beradigan zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan fan o'sish tendentsiyalari va o'ziga xos qonunlariga, ish usullari, texnika va texnologiyalariga, mehnatni tashkil qilish tizimi va tamoyillariga, maxsus tayyorlangan kadrlarga ega bo'lgan inson faoliyatining mustaqil bir sohasiga aylandi. Bu boshqa ko'pchilik sohalardan farqli ravishda, o'sish chegarasini bilmaydigan, doimiy ravishda rivojlanib boradigan sohadir. Shu bilan birga, fan sohasi uchun ajratiladigan resurslar – mehnat resurslari, moliyaviy resurslar va moddiy resurslar – ma'lum bir chegaraga ega. Aynan resurslar cheklanganligi bu

---

43Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. L.: PrinterPublishers, 1987. 570 p.

resurslardan ilmiy-texnik faoliyatning ustuvor yo'nalishlari va turlarida maqsadli foydalanishga yo'naltirish taktika va strategiyasini ishlab chiqishga majbur qiladi.

Ta'lim va yangilik uchun innovatsiyaion dinamikasi va oqibatlarini o'zgartirish muhim hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bilimga asoslangan iqtisodiyot va globallashuv innovatsiyalarning doimiy o'sish dinamikasida qayt etiladi<sup>44</sup>.

Ilmiy faoliyat (ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati)- yangi bilimlar olish va qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat, jumladan:

fundamental ilmiy tadqiqotlar – inson, jamiyat va atrof-muhit tuzilishi, faoliyati va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari haqida yangi bilimlar olishga yo'naltirilgan eksperimental yoki nazariy faoliyat;

amaliy ilmiy tadqiqotlar – asosan amaliy maqsadlarga erishish va muayyan vazifalarni hal qilish uchun yangi bilimlar qo'llashga yo'naltirilgan tadqiqotlar.

Ilmiy-texnik faoliyat (ITF) – texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarni hal qilish, fan, texnika va ishlab chiqarishning umumiyligi (yaxlit) tizim sifatida faoliyat yuritishini ta'minlash uchun yo'naltirilgan faoliyat.

Eksperimental ishlanmalar – ilmiy tadqiqotlar o'tkazish natijasida yoki amaliy tajriba asosida olingan bilimlarga asoslangan hamda inson hayoti va salomatligini asrash, yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, tizimlar yoki usullar yaratish va ularni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatlar.

ITF alohida turlarga taqsimlanadi. Ular o'rtaqidagi chegara shartli hisoblanadi va ularni ajratish qiyin bo'ladi. Buning ustiga, ITFda band bo'lganlar uning bir turi bilan tobora kamroq chegaralanmoqda. Masalan, olim va ixtrochi "fan – ishlab chiqarish – iste'mol" butun tsiklida ishtirok etishi mumkin.

ITF nafaqat natijalari ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik ishlanmalar hisoblangan sohani (ITTKI), balki loyiha va konstruktorlik tashkilotlari, ishlab chiqarish apparati, xo'jalik tarmoqlari va sanoatning ushbu yutuqlardan foydalanish qobiliyatini, jumladan, buning uchun zarur bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. ITF toifalarini tavsiflashga bunday yondashuv ITF boshqaruvi uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki unga amal qilgan holda boshqaruv va tashkilot ob'ektlari yangi texnika va texnologiyalar yaratish, ishlab chiqarish va qo'llashning barcha bosqich va shakllarida o'zaro bog'liqlikda bo'lishi lozim. U amalda "fan – ishlab chiqarish – iste'mol" tsikli haqidagi tasavvurdan uзвиy birlikda foydalanish imkonini beradi.

Bunday yondashuv shu jihatdan ham mahsuldor hisoblanadiki, u inson faoliyatining har xil turdag'i va darajadagi ilmiy-texnik komplekslarni shakllantirishni asoslab bergunga qadar ushbu sohasini tashkil qilish shakllarini izohlab va asoslab beradi.

Fan bilim olish, ta'lim, madaniy, ijtimoiy, harbiy va boshqa bir qator funktsiyalarni bajaradi. Biroq tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan iqtisodiy

<sup>44</sup> Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 50.

funktsiya asosiy funktsiyalardan biriga aylanmoqda. U boshqa barcha faoliyat sohalarida muayyan mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlikning asosiy omiliga aylanadi. Ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda mehnatni tejash fanning o'zidagi mehnat sarfiga bog'liq. Bu bog'liqlik fan sohasiga jamiyat uchun zarur bo'lgan xarajatlarni shakllantirish ob'ektiv ehtiyojini asoslاب beradi. Mehnatni tejash qonuniyligi qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatda mehnat va resurslarning shunchalik katta qismi fanni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim, demak, ilmiy bilimlar qiymati o'sadi. Mahsulot ishlab chiqarishning ko'p ilm talab qilishi, xo'jalikning ko'p ilm talab qiladigan tarmoqlari paydo bo'lishi va rivojlanishi tendentsiyasi o'sishining nazariy asoslari shundan iborat bo'lib, bu boshqaruvning turli pog'onalarida ilmiy-texnik va innovatsion siyosat ishlab chiqish va amalga oshirda albatta hisobga olinishi zarur.

Fanning bevosita mahsuli – tushunchalar, nazariy konstruktsiyalar, modellar va yangi bilimlar tarkibidagi boshqa axborot bo'lib, mutaxassislar tomonidan bir xilda tushunilish va o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Fanning bevosita mahsuli tovarga aylanmaydi – u yangilik sifatida namoyon bo'ladi.

Fan mahsuli yoki intellektual mahsulot ikki xil yo'l bilan – bozorda va bozordan tashqarida sotish yo'li bilan foydalanilishi mumkin. Agarda intellektual faoliyat mahsuloti bozorda sotiladigan bo'lsa, bu holda u yangiliklar toifasidan innovatsiyalar toifasiga o'tadi.

Fanni bozor munosabatlari tizimiga jalb qilish uchun hozirgi paytda oraliq natija – ilmiy-texnik mahsulot – shartnoma shartlariga muvofiq yakunlangan, bozor narxlarida sotiladigan, buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ITTKI natijasi hisobga olinadi. «Yangiliklar kiritish» («innovatsiya») atamasi oxirgi 15-20 yildan beri ilmiy adabiyotlarda va amaliy faoliyatda keng qo'llana boshladi.

Yangilik kiriti (novshestvo) bu – biron-bir faoliyat sohasida uning samaradorligini oshirish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarning rasmiylashtirilgan natijasidir.

Yangilik kiritish – fan va texnika yutuqlaridan bozorda amaliy foydalanish bo'yicha faoliyatning oraliq yakunigina, xolos. Yangilik kiritish intellektual mahsulotning quyidagi turlaridan biri sifatida qayd etilishi va rasmiylashtilishi mumkin: ixtiro, tushuncha, ilmiy yondashuv, yangi tamoyil, standart, tavsiya, uslubiyat, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (texnologiya, boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayoni, tashkiliy, ishlab chiqarish yoki boshqa struktura) hujjatlari, patent, ratsionalizatorlik takliflari, kashfiyotlar, «nou-xau», marketing tadqiqotlari natijalari va h.k. Yangilik kiritish atamasining sinonimi hisoblangan novatsiya tushunchasi ilgari mavjud bo'lмаган bironta yangilikni ifodalaydi.

«Yangilik kiritish» va «novatsiya» tushunchalari bilan «tadqiqot», «ixtiro» va «kashfiyot» tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Ilgari ma'lum bo'lмаган ma'lumotlar olish yoki ilgari ma'lum bo'lмаган tabiat hodisalarini yoki insoniyat muhitini kuzatish jarayoni tadqiqot deb ataladi.

Ixtiro bu – yangi uskuna, mexanizm, vosita, texnologiya, usul va inson tomonidan yaratilgan boshqalarda o'z aksini topadigan tadqiqot natijasidir.

Kashfiyot bu – tadqiqotlarning, ehtimol, qo’shimcha natijasi hisoblanadi. Kashfiyotlar va ixtiolar qoidaga ko’ra, fundamental darajada yuzaga keladi va kamdan-kam hollarda yakka shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ular tasodifan ro’y berishi va foyda olish maqsadini ko’zlamasligi ham mumkin.

Yangilik ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy qilinganidan so’ng bozorda iste’mol qilinadigan yangi mahsulotga aylanadi va uni sotishdan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa turdagи samara olinadi, - u yangi toifaga – innovatsiyalarga aylanadi.

Adabiyotlarda «innovatsiya» atamasiga berilgan ko’plab ta’riflarni topish mumkin. Biroq, tadqiqotchilarining ushbu iqtisodiy toifaga alohida e’tibor ko’rsatishlariga qaramay, ilmiy g’oya haligacha «innovatsiyalar» tushunchasining ham nazariya, ham amaliyot talablariga javob beradigan, shuningdek, ularni amalga oshirishning muayyan sub’ekti – davlat, mintaqa, tarmoq va korxona nuqtai nazaridan to’g’ri bo’ladigan universal ta’rifini ishlab chiqmagan.

«Innovatsiyalar» atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Yozef Shumpeter XX asrning birinchi o’n yilligida kiritgan. O’zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli asarida (1911y.) Y.Shumpeter ilk bora rivojlanishda o’zgarishlarning yangi kombinatsiyalari masalalarini (ya’ni innovatsiya masalalarini) ko’rib chiqdi va innovatsion jarayonga to’liq tavsif berdi.

Y. Shumpeter rivojlanishdagi besh xil o’zgarishni ajratib ko’rsatdi:

- 1) yangi texnika, texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta’minotidan foydalanish;
- 2) yangi xususiyatlarga ega bo’lgan mahsulot joriy qilish;
- 3) yangi xomashyodan foydalanish;
- 4) ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning moddiy-texnika ta’minotida o’zgarishlar;
- 5) yangi sotuv bozorlarining paydo bo’lishi.

U iqtisodiyotda novator-tadbirkor markaziy figuraga aylanishini isbotlab berdi. Y.Shumpeterga ko’ra, innovatsiya bu – iste’mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o’zgarishlardir.

Innovatsion strategiya bu – jamiyat rivojlanishi yo’nalishiga muvofiq texnologiyalarda ham, texnologiyalarni boshqarishda ham yangiliklar kiritishni tanlash va amalga oshirish tizimlarini o’zgartirish jarayonini belgilab beradigan qoidalar va me’yorlar to’plamidir. Innovatsion strategiyaning eng oliv vazifasi – innovatsion jarayon qatnashchilarining manfaatlari va turli yo’nalishdagi jarayonlarni maksimal darajada uyg’unlashtirish hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovatsion o’zgarishlarni amalga oshirish sur’atlarini jadalashtirishni talab etmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamalakatlar tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki chuqur, samarali innovatsion strategiyani amal qilishi mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida iqtisodiyot innovatsion shakllanishi eng avvalo iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi tarmoqlar hisobiga

yuz beradi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xom ashyo eksport qilishini kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag'larining tejalishiga, aholi bandligining oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu omillar o'z navbatida innovatsiya strategiyasini amalga oshirish mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlanishiga olib keladi

### **3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollar**

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'ektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, babs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan ikki qism — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan taxlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalar-ni taxlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalil-lar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, mikdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga aj-ratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagi-na emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni qal qilishda ham keng qo'llaniladi.

Ilmiy tadqiqot institutlari — fan, texnika, ishlab chiqarish sohalarida ilmiy tadqiqot olib boradigan muassasa. Dastlab 19-asr oxiri 20-asr boshlarida vujudga kelgan. 1888 yil Parijda Paster instituti, 1909 yilda Radiy instituti tashkil etilgan. 20-asrning boshlaridan nazariy masalalar bilan birga texnika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saklash bo'yicha muhim muammolar ustida tadqiqotlar olib boruvchi turli Ilmiy tadqiqot institutlari paydo buldi. 20-asrning o'rtalariga kelib Ilmiy tadqiqot institutlari ko'p mamlakatlarda ilmiy faoliyatni tashkil etishning asosiy shakli bo'lib qoldi. O'zbekistonda asosiy nazariy muammolar ilmiy tadqiqot ishlarining muvofiklashtirish markazi — O'zbeshston Fanlar akademiyasida tadqiq etiladi. Bilimning muayyan sohalarini tadqiq etuvchi va bevosita vazirliklar, davlat qo'mitalariga buysunuvchi tarmoq Ilmiy tadqiqot institutlari ham mavjud. O'zbekistonda birinchi ilmiy tadqiqot muassasasi — Toshkent astronomiya va fizika observatoriysi (hoz. Astronomiya instituti) 1873 yilda tashkil etilgan. 2000 yilda O'zbekistonda 100 dan ortiq Ilmiy tadqiqot institutlari ishladi.

#### **Nazorat savollari**

1. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.
2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.
3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

